


Тошкент шаҳар Шайхонтоҳур тумани
Давлат хизматлари маркази томонидан
2022 йил “ _____ ” мартда
_____ -сонли реестр рақами билан

“РЎЙХАТГА ОЛИНГАН”



Ўзбекистон Республикаси Олий ва
ўрта махсус таълим вазирининг
2022 йил “ 7 ” мартда
_____ -сонли буйруғи билан

“ТАСДИҚЛАНГАН”



ТОШКЕНТ КИМЁ-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ УСТАВИ

ТОШКЕНТ КИМЁ-ТЕХНОЛОГИЯ ИНСТИТУТИ УСТАВИ

I. Умумий қоидалар

1. Тошкент кимё-технология институти (кейинги ўринларда Институт деб юритилади) 1991 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1991 йил 6 майдаги ПФ-203-сон фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг 1991 йил 13 майдаги 130-сон қарори билан ташкил қилинган ва Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ташкилий тузилмасига киритилган.

2. Институт давлат олий таълим муассасаси ҳисобланиб, олий таълимнинг асосий ва қўшма таълим дастурларини бажариш бўйича таълим фаолияти билан шуғулланади. Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ўқув, илмий-методик ва бошқа фаолиятларни амалга оширади ҳамда таълим хизматларини кўрсатади.

3. Институт ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, “Таълим тўғрисида” ги қонуни, Олий Мажлис палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари, Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруқлари ҳамда мазкур Уставга амал қилади.

4. Институт юридик шахс мақомига эга бўлган бюджет маблағларини олувчи давлат ташкилоти ҳисобланади. Оператив бошқарувида ўзига хос махсус мол-мулкка эга ва ушбу мол-мулк бўйича ўз мажбуриятларига мувофиқ жавоб беради, ўз номидан мол-мулк сотиб олиши ва мулкий ҳамда номулкий ҳуқуқларни амалга ошириш, зиммасига мажбурият олиши, судда даъвогар ва жавобгар бўлиши мумкин.

Қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган ҳолатлар бундан мустасно.

5. Институт мустақил балансга, Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги Ҳазначилиги тегишли бошқармаларида шахсий ғазна ҳисобварақларига, шу жумладан, банк муассасаларида валюта бўйича ҳисоб рақамларига, Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвири туширилган ва ўз номи ёзилган муҳрга, штамплар ва бошқа реквизитларга эга.

Институтнинг ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги расмий тўлиқ (қисқа) номи: давлат тилида: **Тошкент кимё-технология институти; (ТКТИ)**

рус тилида: **Ташкентский химико-технологический институт; (ТХТИ)**

ингилиз тилида: **Tashkent Institute of Chemical Technology; (ТИСТ).**

Институт жойлашган манзил: Тошкент шаҳри, Шайхонтохур тумани, Навоий кўчаси, 32-уй.

II. Институтининг асосий мақсади, вазифалари ва функциялари

6. Институтнинг асосий мақсади кимё, нефть-газ ва озиқ-овқат саноатлари, замонавий технологиялар ҳамда ишлаб чиқаришнинг бошқа

вазифаларни рўёбга чиқара оладиган юқори малакали мутахассисларни тайёрлашдан иборат.

Асосий мақсаддан келиб чиққан ҳолда қуйидагилар Институтнинг бош вазифалари ҳисобланади:

республикада ишлаб чиқариш ва саноат соҳалари ҳамда таълим тизими учун юқори малакали муҳандис-технолог ва педагог кадрларни халқаро стандартлар даражасида сифатли тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;

тегишли таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича давлат таълим стандартлари, ўқув режалари ва дастурларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш, таклифлар бериш, ўқув, илмий-методик адабиётларни яратиш ва таълим жараёнига татбиқ этиш;

илмий-педагогик ва ўқув-методик фаолиятини мувофиқлаштириш ҳамда кадрларнинг ҳар томонлама етук, рақобатбардош мутахассислар бўлиб етишишларига мўлжалланган комплекс тадбирларни амалга ошириш;

ўқув жараёнига замонавий педагогика, мультимедиа ва ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш;

ўрта махсус, профессионал, зарур ҳолларда ўрта таълим педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш жараёнини ташкил этиш;

қўшма илмий таълим тизимини лойиҳаларни амалга ошириш, илмий-таълим жараёнига етакчи хорижий мутахассисларни жалб этиш мақсадида хорижий олий таълим муассасалари ва илмий марказлар билан ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш;

илмий-педагогик ходимлар ва таълим олувчиларнинг тадқиқотлари ва ижодий фаолиятлари орқали фанни ривожлантириш, олинган натижалардан таълим жараёнида фойдаланиш;

юримдик ва жисмоний шахсларнинг буюртмаларига биноан шартномалар асосида илмий тадқиқот ишлари ва ишланмаларни бажариш;

ўқув адабиётлари ва монографияларни тайёрлаш ва чоп этиш;

ходимлар ва таълим олувчиларга ақлий ва ижодий фаолият, спорт билан шуғулланиш ва дам олишлари учун зарур шароитларни яратиш;

Институтнинг моддий-техник базасини ривожлантириш.

III. Ўқув-тарбиявий ва илмий-методик ишларнинг субъектлари, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

а) Талабалар:

7. Ректорнинг буйруғи билан ўқишга қабул қилинган шахс Институт талабаси ҳисобланади. Талабага талабалик гувоҳномаси ҳамда рейтинг дафтарчаси бепул берилади.

Институтга ўқишга қабул қилиш амалдаги қонунларда белгиланган тартибда умумий ўрта, ўрта махсус, касб-хунар (профессионал) таълими маълумотига эга бўлган шахслар аризаларига биноан Ўзбекистон Республикасидаги олий таълим муассасаларига талабаларни қабул қилиш

тартиби ва қоидаларига мувофиқ таълим муассасаларига қабул қилиш бўйича Давлат комиссияси томонидан тест синовлари ва касбий (ижодий) имтиҳон натижаларига кўра, тўпланган балларнинг рейтинги бўйича амалга оширилади.

Институтга қабул барча учун (ҳам грантлар, ҳам тўлов-контракт бўйича) тенг ҳуқуқлилик, ягона қабул қоидалари ва ягона танлов асосида амалга оширилиб, тест синовларида энг юқори балл тўплаган абитуриентларнинг давлат грантлари бўйича биринчи навбатда қабул қилиниш ҳуқуқи таъминланади. Қолган абитуриентлар тест баллари рейтинги асосида белгиланган тўлов-контракт квоталари доирасида қабул қилиниш ҳуқуқига эгадирлар. Қонунчиликка мувофиқ тест синовларисиз муайян имтиёз асосида ҳам ўқишга қабул қилиш ўрнатилган тартибда амалга оширилади.

Кириш синовлари натижасига кўра етарли балл тўплай олмаган оширилган тўлов-контракт асосида ўқиш истагини билдириб белгиланган муддатда тўлов-контракт шартномаси талабларини бажарган абитуриентлар Институт талабалари сафига қабул қилинади.

8. Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 24 сентябрдаги 606-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларида иккинчи ва ундан кейинги таълимни олиш тартиби тўғрисидаги Низомга мувофиқ олий маълумотга эга бўлган шахслар Институтга иккинчи ва ундан кейинги олий маълумот олиш учун тўлов-контракт (шартнома) асосида ўқишга қабул қилинишлари мумкин.

Иккинчи ва ундан кейинги олий маълумот олиш учун абитуриентлар қабулини Институт қабул комиссияси амалга оширади.

Қўшма таълим дастурлари асосида кириш синовларини муваффақиятли топширган ҳамда тўлов-контракт квоталари доирасида тўлов-контракт шартларини бажарган абитуриентлар ўқишга қабул қилиниш ҳуқуқига эгадирлар.

9. Институтнинг талабалари қуйидаги ҳуқуқларга эга:

фан, техника, замонавий муҳандислик ва ахборот технологиялари соҳасида эришилаётган ютуқларга мос келувчи билимлар олиш;

олий таълим муассасаси ахборот-ресурс марказида мавжуд бўлган китоблардан, даврий нашрлардан, электрон таълим ресурсларидан белгиланган тартибда бепул фойдаланиш;

бепул маслаҳатлар ва йўл-йўриқлар олиш;

аудиториялар, таълим жараёнига оид ўқув-техник воситалардан ўрнатилган тартибда бепул фойдаланиш;

таълим жараёни самарадорлиги ва таълим сифатини ошириш юзасидан ўз таклиф-мулоҳазаларини, танқидий фикрларини белгиланган тартибда таълим муассасаси, деканат ва кафедра раҳбариятига билдириш ҳамда уларни кўриб чиқишини талаб қилиш;

олий таълим муассасаси ва факультет миқёсида ўтказиладиган маънавий-маърифий ва спорт тадбирларида иштирок этиш;

илмий-тадқиқот ишларида ва илмий конференцияларда ўрнатилган тартибда фаол қатнашиш;

олий таълим муассасасида қонуний равишда фаолият юритаётган жамоат бирлашмаларига аъзо бўлиш;

кундузги ўқув шаклида таълим олаётган талабаларга ўқишдан бўш вақтларида олий таълим муассасасининг ўзида, шунингдек, бошқа жойларда ишлашга рухсат этилади. Бунда бажарилаётган иш талабанинг соғлигига ва ўқишига путур етказмаслиги зарур.

Талаба сифатли ва юқори савияда билим олиши, танлаган ихтисослиги бўйича юқори малакали мутахассис бўлиб етишиши учун зарур бўлган қонунчилик ҳужжатларига зид бўлмаган бошқа ҳуқуқлардан фойдаланишга ҳақлидир.

Талаба ўз ҳуқуқларини суистеъмол қилмаслиги, бу ҳуқуқлардан ўзга шахслар манфаатига зид мақсадларда фойдаланмаслиги шарт.

10. Институт талабаларининг мажбуриятлари:

таълим жараёнида Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатлари талабларига, жамиятнинг ахлоқий принципларига, маънавий қадриятларга, Институтнинг Устави, Ички-меҳнат тартиб қоидалари, Одоб-ахлоқ қоидаларига, талабалар турар жойлари қоидаларига қатъий риоя қилиш;

Ватанига ва халқига ҳалол хизмат қилишга тайёр, юқори билимли мутахассис бўлиб етишиш учун фидокорона билим олиш, ўз касбий салоҳиятини шакллантириш ва такомиллаштириш;

таълим олиш жараёнида жамиятнинг ахлоқий принципларига, маънавий қадриятларга, қонун талабларига, ўзаро муносабатларнинг юксак талабларига жавоб берувчи қоидаларига қатъий амал қилиш;

танлаган ихтисослиги бўйича чуқур назарий билим олиш, бўлғуси касби бўйича амалий кўникмалар ҳосил қилиш;

ўқув жараёни талабларига бўйсунishi, ўқув машғулотларини узрли сабабсиз қолдирмаслик, дарсларга кеч қолиб келмаслик, дарс машғулотлари яқунланмасидан аввал кетиб қолмаслик;

таълим жараёни билан боғлиқ вазифаларни ўз вақтида ва сифатли бажариш, ўқитувчиларнинг фанни ўзлаштириш билан боғлиқ топшириқларини ўз вақтида ва талаб даражасида бажариш, машғулотларга зарур ўқув қуроллари билан келиш;

тегишли кафедра ва деканат билан мустаҳкам алоқада бўлиш, деканат раҳбариятининг қонуний топшириқларини ўз вақтида бажариш;

билимларни эгаллашда ташаббус ва ғайрат кўрсатиш, лоқайдликка йўл қўймаслик;

барча билан ҳушмуомалада бўлиш;

Институт мол-мулкига эҳтиёткор ва тежамкор муносабатда бўлиш, уларга қасддан ёки эҳтиётсизликдан зиён етказмаслик, зиён етказилган тақдирда моддий зарар ўрнини ўрнатилган тартибда қоплаш, моддий ашёларни аудиториядан ёки бинодан ташқарига рухсатсиз олиб чиқмаслик;

бино ичида, йўлакларда, аудиторияларда санитария қоидаларига риоя қилиши, ифлослантирмаслиги, алкоголь ва тамаки маҳсулотларининг тарқатилиши ва истеъмол қилинишига йўл қўймаслик;

қийиниш маданиятига риоя қилиш, хусусан ташқи кўриниши ва ёмон хулқ-атвори билан бошқалардан ажралиб турмаслиги, ахлоқ-одоб нормаларига сўзсиз бўйсунуши;

ўқув машғулотида келмаган ҳолатда (шу жумладан, касаллиги туфайли) уч кундан кечикмасдан бевосита ўзи ёхуд бириктирилган тьютори орқали деканатни тегишли равишда, хусусан ёзма тарзда хабардор қилиш, қатнашмаслик сабабларини кўрсатиш;

хорижий ташкилотлар грантларида қатнашгани тақдирда бу ҳақда факультет деканини хабардор қилиш, грант билан боғлиқ ҳолда чет элга жўнаб кетишдан аввал ўрнатилган тартибда институт раҳбариятининг розилигини олиш;

ўз илмий, маънавий-ахлоқий, ғоявий-сиёсий савиясини мунтазам ошириб бориши, мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий соҳалардаги ислохотлар ва янгиланишлардан хабардор бўлиш;

ўқув интизомига, Институт кенгаши қарорлари, ректор буйруқлари ҳамда таълим тизимида доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда қўйилган мақсад ва вазифаларга, шунингдек, ўзининг мажбуриятларига риоя этиш.

11. Институт ҳудудида талабаларга қуйидагилар таъқиқланади:

алкоголь ва тамаки маҳсулотларини тарқатиш ва истеъмол қилиш;

миллий, ирқий, диний адоватни тарғиб қилувчи ҳар қандай шаклдаги материалларни тайёрлаш, сақлаш, тарқатиш ва тарғиб қилиш;

Институт бинолари ва ҳудудидаги моддий-техник, бошқа мол-мулкка зарар етказиш;

ўқиш вақтида Институт маъмурияти рухсатисиз чет эл давлатларига бориш.

12. Ўқиш даврида ўқув ва илмий-тадқиқот фаолиятида юқори кўрсаткичларга эга бўлган талабалар Институтнинг бюджетдан ташқари маблағлари, шунингдек, халқаро ва хорижий ташкилотлар грантлари ҳисобидан ҳамда Институтнинг хорижий ҳамкорлари билан шартномалари асосида етакчи хорижий таълим муассасаларига талабаларнинг академик алмашинуви доирасида ўқишга юборилиши мумкин.

Талабаларнинг академик алмашинувини таъминлаш бўйича етакчи хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликни мустаҳкамлаш мақсадида Институтда хорижий мамлакатларнинг талабалари ҳам ўз ўқишини давом эттириши мумкин.

13. Давлат гранти ва тўлов-контракт асосида ўқитишнинг ишлаб чиқаришдан ажралган шаклида таълим олаётган талабалар Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланган тартиб ва миқдорда стипендия билан таъминланадилар (хорижий талабалар бундан мустасно).

Талабалар тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга асосан Ўзбекистон Республикаси Президенти ва номли давлат стипендиялари ва Институтнинг махсус стипендияларини олиш ҳуқуқига эгадирлар.

14. Ҳарбий хизматни ўташ, саломатлигини тиклаш, ҳомиладорлик ва туғиш, шунингдек болаларни парвариш қилиш, оиласининг бетоб аъзосини (отаси, онаси ёки уларнинг ўрнини босувчи шахслар, турмуш ўртоғи, фарзанди) парвариш қилиш учун талабага академик таътил берилиши мумкин. Ушбу таътилни бериш тартиб-қоидалари Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 3 июндаги 344-сонли қарори билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари талабаларига академик таътил бериш тўғрисида”²²ги Низом”да белгиланган.

15. Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ кундузги ўқув шаклида таълим олаётган талабаларга олий таълим муассасасида ўқиётган вақти давомида ҳарбий хизматга чақириш муддатини кечиктириш имкони берилади.

16. Институтнинг Талабалар турар жойи сиғимидан келиб чиққан ҳолда муҳтож талабалар, институт талабалар турар жойларидан санитария меъёрлари ва қоидаларига жавоб берадиган жой билан таъминланади.

Талабалар турар жойи учун тўлов талабалар турар жойларида коммунал-маиший хизматлар учун тўловларни инобатга олиб, институт Кенгаши томонидан белгиланади.

Турар жойга муҳтож талабалар мавжуд бўлган ҳолда, олий таълим муассасасининг талабалар турар жойлари майдонидан бошқа мақсадларга фойдаланиш (ижарага бериш, бошқа келишувлар)га рухсат этилмайди.

17. Институтдан четлаштирилган талаба Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланган талабалар ўқишини кўчириш, қайта тиклаш ва ўқишдан четлаштириш тартиби ва қоидалари асосида қайта ўқишга тикланиш ҳуқуқига эга.

Институтнинг талабалари белгиланган тартиб ва қоидалар асосида бошқа олий таълим муассасаларига ўқишларини кўчириш (ўқишга қайта тикланиш) ҳуқуқига эга.

Ўзбекистон Республикаси ҳудудида таълим фаолиятини олиб бориш учун лицензияга эга бўлмаган нодавлат олий таълим муассасалари ва бошқа мамлакатлар олий таълим муассасаларининг филиаллари (марказлар, бўлимлар, ўқув-маслаҳат пунктлари ва бошқалар)дан талабаларни Институтга ўқишини кўчиришга (ўқишга тиклашга) йўл қўйилмайди.

Талабалар ўқишини бир олий таълим муассасасидан бошқасига кўчириш, қайта тиклаш ва ўқишдан четлаштириш тартиби ва қоидалари Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорларида назарда тутилган ҳоллардан ташқари, талабаларни ўқиш вақти ҳисобидан таълим жараёни билан боғлиқ бўлмаган ишларга жалб этиш ман этилади.

19. Талаба ўзига юклатилган юқоридаги мажбуриятларни бузган тақдирда унга нисбатан қуйидаги интизомий жазо чоралари кўрилади:

хайфсан ҳамда талабалар сафидан четлатиш.

20. Талаба институтдан куйидаги ҳолларда четлаштирилиши мумкин:

а) ўз хоҳишига биноан;

б) ўқишнинг бошқа таълим муассасасига кўчирилиши муносабати билан;

в) ўқув интизомини ва институтнинг ички тартиб-қоидалари ҳамда одоб-ахлоқ қоидаларини бузганлиги учун;

г) бир семестр давомида дарсларни узрли сабабларсиз 74 соатдан ортик қолдирганлиги сабабли;

д) ўқиш учун белгиланган тўлов ўз вақтида амалга оширилмаганлиги сабабли (тўлов-контракт бўйича таҳсил олаётганлар учун);

е) талаба суд томонидан озодликдан маҳрум этилганлиги муносабати билан;

ж) суд қарорига кўра кириш имтиҳонларида белгиланган тартибни бузганлиги аниқланганда (ушбу ҳолатда талабалар сафидан четлаштирилганлар талабалар сафига қайта тикланмайди);

з) вафот этганлиги сабабли.

21. Белгиланган муддатларда фанларни ўзлаштира олмаган (академик қарздор бўлган) талаба институт ректори буйруғи билан курсдан қолдирилади. Академик қарздорлиги туфайли курсдан қолдирилган талаба тўлов-контракт асосида ўқишини куйи курсдаги ўқув семестри бошидан бошлаши мумкин.

Институтда кредит-модуль тизимида ўқиётган талабаларига нисбатан Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 824-сон қарори билан тасдиқланган Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнига кредит-модуль тизимини жорий этиш тартиби тўғрисидаги Низомнинг 8-боби қоидалари қўлланилади.

22. Институт маъмурияти ташаббуси билан ушбу Уставнинг 20-банди «д» кичик бандига кўра талабаларни ўқишдан четлаштириш талабалар касаба уюшмасининг ёзма розилигини инобатга олган ҳолда (касаба уюшмаси аъзоси бўлган талабалар учун) амалга оширилади. Шунингдек, талаба ушбу Уставнинг 20-банди «в» кичик бандига кўра четлаштирилаётган ҳолда, таълим муассасасининг Ёшлар иттифоқи бошланғич ташкилоти билан ҳам келишилиши мумкин.

23. Интизомий жазога тортилаётган талаба ўзига қўлланилган жазо чорасининг қонунийлиги ва адолатлиги юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят билан Институт ректорига, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига ёки бошқа юқори турувчи ташкилотларга мурожаат этиши мумкин.

Талабага нисбатан қўлланилган интизомий жазо юзасидан маълумот унинг шахсий йиғма жилдида сақланади.

Талаба институтдан четлаштирилганда, унга шахсий ҳужжатлари, белгиланган шаклдаги академик маълумотнома топширилади ва уларнинг нусхаси шахсий йиғма жилдда сақланади.

Интизомий жазо чоралар талабаларнинг касаллик ёки таътилда бўлган вақти ҳисобга олинмаган ҳолда хатти-ҳаракат аниқлангандан сўнг бир ойдан ва хатти-ҳаракат содир этилганидан сўнг олти ойдан кечиктирилмай қўлланилади. Талабалар касаллик пайтида, академик таътил ёки хомиладорлик ва туғиш ҳолати билан боғлиқ бўлган таътил пайтларда талабаларга интизомий жазо чораларини кўриш тақиқланади.

Талаба касал бўлганлиги ўзи ёки унинг ота-онаси томонидан ёзма ариза билан бевосита деканатга, одатда, бир ҳафтадан кечиктирилмасдан маълум қилинади ва тиббий маълумотнома аслини тақдим этади.

б) Тингловчилар:

24. Институт ҳузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ марказида ўқиётган шахслар тингловчилар ҳисобланади.

Кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тартиби, тингловчиларни ўқитиш шартлари ва ҳуқуқлари қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар билан белгиланади.

в) Таянч докторант, докторант ва мустақил изланувчилар:

25. Институтда Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан молиялаштириладиган, ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда мутахассисликни чуқур ўрганиш ва докторлик диссертациясини тайёрлаш ҳамда ҳимоя қилиш мақсадида илмий изланишлар олиб бориш бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) ва фан доктори (Doctor of Science) илмий даражалари изланувчилари учун ташкил этилган олий таълимдан кейинги таълимда ўқиётган фуқаро таянч докторант ва докторант ҳисобланади.

Ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда докторлик диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилиш мақсадида мутахассисликни чуқур ўрганиш ва улар томонидан илмий изланишлар бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) ва фан доктори (Doctor of Science) илмий даражалари изланувчилари учун ташкил этилган олий таълимдан кейинги таълимда ўқиётган фуқаро мустақил изланувчи ҳисобланади.

Таянч докторант, докторант ва мустақил изланувчиларни ўқитиш шакллари ва муддатлари, уларни қабул қилиш ҳамда фаолиятини ташкил этиш қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ амалга оширилади.

г) Институтнинг профессор - ўқитувчилари таркиби, ўқув-ёрдамчи ва маъмурий - хўжалик ходимлари (персонали)

26. Институтда профессор-ўқитувчилар таркиби, илмий ходимлар, бошқарув, техник, хизмат кўрсатувчи ва ўқув-ёрдамчи ходимлар ва бошқа хизматчилар лавозимлари мавжуд.

Профессор - ўқитувчилар таркибига кафедра мудири, профессор, доцент, катта ўқитувчи, ўқитувчи, ассистент ва ўқитувчи-стажёр лавозимлари киради.

27. Профессор-ўқитувчилар таркибидаги лавозимларга ишга қабул қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий

таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сон қарорига мувофиқ тегишли кафедранинг кенгайтирилган очик мажлисида педагог кадрлар ва жамоатчилик кенгашининг аъзолари иштирокида синов дарси ўтказиш натижалари бўйича ушбу мажлисининг тавсиясига кўра, Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 10 февралдаги 20-сон қарори билан тасдиқланган Олий таълим муассасаларига педагог ходимларни танлов асосида ишга қабул қилиш тартиби тўғрисидаги Низомга мувофиқ танлов асосида меҳнат шартномаси бўйича амалга оширилади.

Ташкилий бошқарувдаги мустақиллик соҳасида Институтга берилган қўшимча ваколатлар доирасида (2022/23 ўқув йилидан бошлаб) педагог ва бошқа ходимларни ишга қабул қилиш, ишдан озод этиш ва ички ротациясига оид тартиб белгилангандан сўнг ушбу банднинг биринчи хатбошидаги қоидалар амалда ўз кучини йўқотади.

28. Институтнинг профессор-ўқитувчилар билан меҳнат шартномасини бекор қилиш амалдаги меҳнат қонунчилигига мувофиқ амалга оширилади.

29. Институтнинг профессор-ўқитувчилар таркиби ва илмий ходимлари куйидаги ҳуқуқларга эга:

- белгиланган тартибда Институт ва факультет Кенгашларига сайлаш ва сайланиш;

- Институтнинг фаолиятига тааллуқли масалаларни муҳокама қилишда иштирок этиш;

- Институтнинг ахборот-ресурс маркази, ўқув ва илмий бўлинмаларнинг хизматларидан, шунингдек, ижтимоий-маиший, тиббий ва бошқа бўлимлар хизматидан жамоа шартномасига мувофиқ фойдаланиш;

- ўқитишнинг услуб ва воситаларини танлаш, ўқув ва илмий жараённинг юқори сифатини таъминловчи илмий тадқиқот ишларини амалга ошириш;

- Институт маъмуриятининг буйруқ ва фармойишлари юзасидан қонунчиликда белгиланган тартибда мурожаат қилиш;

- қонунчиликда белгиланган тартибда танловларда қатнашиш, лавозимларни эгаллаш;

- хорижий ҳамкасбларнинг соҳага доир илмий ва ўқув-услубий адабиётлари билан танишиш ва улар билан фикр алмашиш;

- назарий билимларини амалий тажрибасини, илмий тадқиқот олиб бориш услубини, педагогик маҳоратини такомиллаштириб бориш;

- талабаларнинг илмий тадқиқот ишларига раҳбарлик қилиш;

- илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш, фундаментал, амалий ва инновация лойиҳалари, хорижий илмий лойиҳалар ҳамда хўжалик шартномаларида иштирок этиш;

- дарслик ва ўқув қўлланмалар тайёрлаш, монография ва илмий мақолалар ёзиш, ихтиро учун патент, АКТ учун дастурий маҳсулотларга гувоҳномалар олиш;

- тасдиқланган режага мувофиқ илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш, илмий-тадқиқот ишларининг муҳокамасида иштирок этиш ва уларнинг натижаларини ишлаб чиқаришга жорий этиш (тижоратлаштириш), илмий ишлар натижаларини нашр этишга тавсия бериш;

- таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг самарали интеграциясини таъминлашда қатнашиш;

- хорижий етакчи олимлар, илмий марказлар ва таълим муассасалари билан халқаро алоқаларни ривожлантиришда иштирок этиш;

- Ўзбекистон Республикасининг таълим соҳасига оид қонунчилигида белгиланган бошқа ҳуқуқлардан фойдаланиш.

30. Институтнинг профессор-ўқитувчилар таркиби ва илмий ходимларининг мажбуриятлари қуйидагилардан иборат:

- таълим тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари, меҳнат ва технология интизоми, мазкур Устав, Ички меҳнат тартиби ҳамда одоб-ахлоқ қоидаларига қатъий риоя қилиш; ўзининг хизмат вазифаларини виждонан бажариш ва ўқитувчилик шаънига доғ туширмаслик;

- иш жараёнида мулоқот қиладиган Институт ходимлари, талабалари ва бошқа шахслар билан хушмуомалада бўлиш;

- иш берувчининг қонуний буйруқ ва фармойишларини бажариш, ҳар йили тасдиқланадиган шахсий режа асосида ўқув-услугий, илмий ва маънавий-маърифий ишларни ўз вақтида ва сифатли бажариш, хусусан:

- а) ўқув юкламалари ҳажмини, ўқув-услугий, илмий ўқув-ташкилий ишларни тасдиқланган шахсий режа асосида бажариш ва маънавий-маърифий ишларда иштирок этиш;

- б) илмий-тадқиқот натижалари бўйича дарслик, ўқув қўлланма тайёрлаш, ўқув абадиётлари, илмий мақолалар, монографиялар ёзиш, ихтиро учун патент, АКТ учун дастурий маҳсулотларга гувоҳномалар олиш;

- в) таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг самарали интеграциясини таъминлашда қатнашиш, талабаларнинг илмий-тадқиқот ишларига раҳбарлик қилиш;

- г) тарбиявий ишларни олиб бориш, талабалар билан маънавий-маърифий ишларда бевосита иштирок этиш, шу жумладан дарсдан ташқари вақтларда ўтказиладиган тадбирларда қатнашиш;

- д) Институт Кенгаши томонидан тасдиқланган кафедрада бажариладиган илмий мавзуларида иштирок этиш;

- е) ўз малакасини уч йилда бир марта ошириш;

- меҳнатни муҳофаза қилиш хавфсизлик техникаси ва ишлаб чиқариш санитариясига доир қоидаларига риоя қилиш;

- институтнинг мол-мулкани авайлаш, ундан оқилона фойдаланиш;

- иш берувчига бевосита ўзининг айби билан етказилган ҳақиқий моддий зарарни қоплаш;

- институт жамоатчилигида қатнашиш;

- педагогик ва илмий жараённинг самарадорлигини таъминлаш;

- замонавий глобаллашув ва демократия шароитида таълим олувчиларнинг танлаган йўналиши (мутахассислиги) бўйича юксак касбий тайёргарликни, меҳнатга бўлган қобилиятни шакллантириш;

- чет тили ва ахборот технологияларидан саводхонлигини ошириб бориш асосида камида бир ёки иккита хорижий тилни билиши;

- таълим олувчиларда мустақил фикрлаш, ташаббускорлик, ижодий қобилиятни шакллантириш;

- «Устоз-шогирд» тизимида иштирок этиб, ўзига бириктирилган шогирдлар билан илмий, маънавий-маърифий, тарбиявий ишларни амалга ошириш;

- ўзининг одоби, маданияти, маънавий савияси билан ўрнатилган бўлиш;

- кийиниш маданиятига риоя этиш;

- институти ички тартиб ҳамда одоб-ахлоқ қоидаларига сўзсиз риоя қилиш;

- республикада амалга оширилаётган ислохотлар ва жаҳонда рўй бераётган янгиликлардан хабардор бўлиш;

- институт, факультет, кафедра томонидан ташкил этиладиган маданий, маънавий, маърифий тадбирларда фаол иштирок этиш;

- ўзи ўқитадиган фан дастурини мунтазам фан ва техника ютуқлари асосида бойитиб бориш;

- дарсларни юқори савияда ўтиш;

- фан йўналишига тегишли янги манбаларни топиш ва улар билан талабаларни таништириб бориш;

- ҳар ўқув йили бошлангунга қадар ўзи ўқитадиган фан(лар)нинг ишчи ўқув дастури, календарь режаси ва рейтинг назоратлари жадвалини ишлаб чиқиш ва кафедра мажлисида тасдиқлаштириш;

- рейтинг тадбирларини ўз вақтида ўтказиш;

- талабалар билимини холисона баҳолаш;

- янги педагогик технологияларни дарс жараёнида қўллаш;

- илмий салоҳият ва педагогик маҳоратини ошириш;

- талабалар илмий-тадқиқот ишларига раҳбарлик қилиш;

- ўзининг мутахассислиги бўйича ишлаб чиқариш корхонаси ва муассасаларда мавжуд муаммолар ҳақида маълумот ва тасаввурларга эга бўлиши ҳамда ишлаб чиқариш жараёнида мавжуд муаммоларнинг ечимига оид тадқиқот мавзусига эга бўлиш;

- олиб бораётган тадқиқот мавзуси асосида ўз ёки ҳаммуаллифликдаги ишланма ва технологияларга эга бўлиши;

- мутахассислиги бўйича таянч олий таълим муассасалари ва ишлаб чиқариш корхоналарида тегишли муддатларда малака ошириб бориши ёки стажировкадан ўтиши;

- олий таълим тизимида амалга оширилаётган ислохотларда фаол қатнашиш;

31. Институт профессор-ўқитувчилари таркибини уч йилда камида бир маротаба малакасини ошириш қафолатини таъминлайди.

32. Институтнинг бошқарув, техник, хизмат кўрсатувчи ва ўқув-ёрдамчи ходимлар ва бошқа хизматчилар ҳуқуқ ва мажбуриятлари олий таълим муассасасининг Ички тартиб ҳамда одоб-ахлоқ қоидалари ва лавозим йўриқномалари билан белгиланади.

IV. Ўқув-тарбиявий ва илмий-методик ишлар

33. Институт мутахассислиги бўйича қуйидаги таълим турлари асосида ўқитишни амалга оширади:

олий таълим;

олий таълимдан кейинги таълим;

кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш;

Институт олий таълимнинг бакалавриат таълим йўналишлари ва магистратура мутахассисликлари бўйича юқори малакали кадрлар тайёрланишини таъминлайди.

Институтда, умумий ўрта (ўн бир йиллик таълим), ўрта махсус (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик ўрта махсус таълим), бошланғич профессионал таълим (тўққиз йиллик таянч ўрта ва икки йиллик бошланғич профессионал таълим) олган шахслар, шунингдек ушбу Қонун кучга киргунига қадар ўрта махсус, касб-хунар таълими (тўққиз йиллик умумий ўрта ва уч йиллик ўрта махсус, касб-хунар таълими) олган шахслар олий маълумотли таълим олади.

Институт таълимнинг асосий таълим дастурларини икки босқичда амалга оширади: бакалавриат ва магистратура.

Бакалавриат олий таълим йўналишларидан бири бўйича чуқурлаштирилган билим, малака ва кўникмалар берадиган, ўқиш давомийлиги камида 3 (уч) йил бўлган таянч олий таълимдир.

Бакалавр дастурини тугатган битирувчиларга давлат аттестацияси яқунлари бўйича таълим йўналиши бўйича «бакалавр» даражаси берилади ҳамда давлат намунасидаги диплом топширилади.

Магистратура тегишли бакалавриат негизидаги аниқ мутахассислик бўйича ўқиш давомийлиги камида 1 (бир) йил бўлган олий таълимдир.

Магистратура мутахассисликларининг ва уларга мувофиқ бўлган бакалавриат таълим йўналишларининг рўйхати таълим соҳасидаги ваколатли давлат бошқаруви органи томонидан белгиланади.

Магистр дастурини тугатган битирувчиларга давлат аттестацияси яқунлари бўйича тайёрланган муайян мутахассислик бўйича «магистр» даражаси берилади ва давлат намунасидаги диплом топширилади.

Бакалавр ва магистрлик давлат намунасидаги диплом унинг эгаларига касбий фаолият билан шуғулланиш ёки танланган таълим йўналишига ва мутахассислигига мувофиқ таълим муассасаларининг навбатдаги босқичларида ўқишни давом эттириш ёки эгаллаган мутахассислиги бўйича ишлаш ҳуқуқини беради.

Олий таълимнинг турли босқичида асосий таълим дастурлари бўйича дастлабки таълим олиш, иккинчи олий таълим олиш сифатида қаралмайди.

34. Институтда таълим жараёнини ташкил этиш, ишлаб чиқиладиган ва ўрнатилган тартибда тасдиқланадиган ўқув режалари ва фанларнинг дастурлари, институт ректори (ўқув ишлари бўйича проректор) томонидан тасдиқланган йиллик календарь ўқув жадвали ҳамда машғулотлар жадвали билан тартибга солинади.

Таълим жараёнини мақсадли йўналтириш йўли билан ташкил этиш, яъни таълим шакллари, услуб ва воситаларни танлаш йўли билан институт талабаларига олий таълимнинг асосий касбий таълим дастурларини ўзлаштириш учун зарурий шароитларини яратиб берилиши лозим.

35. Институтда ўқув машғулотларининг қуйидаги асосий турлари белгиланган: маъруза, консультация, семинар, амалий машғулот, лаборатория иши, яқка машғулот (амалий ижрочилик билан боғлиқ бўлган санъат йўналишларида), назорат иши, коллоквиум, мустақил иш, амалиёт, курс лойиҳаси (курс иши), бакалаврлик битирув малакавий иши ҳамда магистрлик диссертацияси.

Аудитория машғулотларининг барча турлари учун 80 дақиқалик (танаффуссиз қўшма маъруза) академик соат белгиланган. Ўқув машғулотлари орасидаги танаффус камида 10 дақиқа бўлади.

Таълим ва тарбия олиб бориладиган тиллар: ўзбек, рус ва инглиз тиллари ҳисобланади.

36. Институтда кадрлар тайёрлаш ишлаб чиқаришдан ажралган ва ажралмаган ҳолда олиб борилади.

Институтнинг асосий касбий таълим дастури доирасида таълим олишнинг барча шакллари учун ўрнатилган тартибда ишлаб чиқилган ва белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилган давлат таълим стандарти қўлланилади.

37. Институтда ўқув йили икки семестрга бўлинади ва унинг ҳар бирида талабаларнинг ўзлаштириши рейтинг назорати шаклида олиб борилади.

Ўзлаштирувчи талабаларни курсдан курсга ўтказиш факультет деканининг тавсиясига биноан ректор буйруғи билан амалга оширилади. Талабаларни курсдан курсга шартли ўтказиш мумкин эмас.

Институтнинг таълим дастурларини ўзлаштириш Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 824-сон қарори билан тасдиқланган “Олий таълим муассасаларида ўқув жараёнига кредит-модуль тизимини жорий этиш тартиби тўғрисидаги Низом” ва “Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назорат қилиш ва баҳолаш тизими тўғрисидаги Низом” (рўйхат рақами 3069, 2018 йил 26 сентябрь) билан тартибга солинади.

Институтда битирувчиларнинг якуний аттестацияси Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасалари битирувчиларининг якуний давлат аттестацияси тўғрисидаги Низом (рўйхат рақами 1963, 2009 йил 5 июнь) қоидаларига мувофиқ амалга оширилади.

38. Институтда илғор педагогик ва ахборот технологиялари, таълимни индивидуаллаштириш ва мустақил таълим олиш воситаларини, модуль тизими

ҳамда масофавий таълим беришни қўллаш ҳисобига мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишга йўналтирилган илмий-услубий ишлар амалга оширилади.

39. Институтда олий таълимдан кейинги таълим доирасида Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси томонидан тасдиқланган «Олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар мутахассисликлари рўйхати»га мувофиқ илмий ва илмий-педагогик кадрларни тайёрлаш, шунингдек фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертациялар тайёрлаш ва ҳимоя қилиш учун олий таълим муассасасига докторант ва мустақил изланувчиларни бириктириш ишлари амалга оширилади.

40. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 августдаги «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узликсиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида»ги ПФ-5789-сонли Фармони ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрдаги «Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 797-сон қарорига мувофиқ кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш бўйича касбий таълим дастурлари амалга оширилади.

41. Институт ҳузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ марказида Аттестациядан муваффақиятли ўтган қайта тайёрлаш ва малака ошириш курслари тингловчиларига қатъий ҳисобда турадиган давлат намунасидаги ҳужжат ҳисобланадиган малака аттестати берилади.

42. Институтда Кенгаш томонидан тасдиқланган мавзулар, режалар бўйича бажариладиган ишларнинг сифати ҳамда меҳнат хавфсизлиги таъминланган ҳолда талабалар, магистрантлар, илмий ходим изланувчи ва мустақил изланувчилар кенг жалб этилиб, илмий-тадқиқот ва ижодий ишларни олиб борилади.

V. Институтнинг таркиби

43. Институт мустақил равишда ташкилий ва таркибий тузилмасини шакллантиради.

Институт бажариладиган ишларнинг ҳажми ва шакллари асосида ходимларни рўйхатини мустақил равишда белгилайди, ходимлар билан меҳнат шартномаларини тузиш ва тугатиш, иш бўйича мажбуриятларни тақсимлайди.

Институтнинг таркибида турли таркибий бирликлар бўлиши мумкин, улар таълим, илмий ва бошқа фаолиятни амалга оширади (филиаллар, ваколатхоналар, бўлимлар, факультетлар, илмий тадқиқотлар маркази, конструкторлик бюрolari, тўғарак курслари, инновацион-технологик, ўқув-методик бўлимлар, илмий тадқиқот лабораториялари, ўқув ва амалий машғулотлари устахоналари, ўқув ва тажриба машғулотлари лабораториялари, ўқув майдончалари, ўқув-илмий амалиёт учун илмий асосли базалар, ўқув ва намойиш марказлари, ахборот-ресурс марказлари, рақамли

технология марказлари, музейлар, босмахона, спорт клублари, спорт ва соғлиқни сақлаш марказлари, ётоқхоналар, психологик ва ижтимоий педагогик хизматлар, уларга эҳтиёжи бўлганларни адаптация ва реабилитация қилиш марказлари, боғ, дала майдонлари, кичик (унитар) корхоналар, миницеҳлар ва локал норматив ҳужжатларда назарда тутилган бошқа таркибий бўлинмалар).

Институт таркибий бўлимлари юридик шахс ҳисобланмайди (қонун ҳужжатларига мувофиқ институтда юридик шахс мақомига эга бўлган тузилмалар ташкил этилиши мумкин. Ушбу тоифадаги тузилмаларнинг ҳуқуқий мақоми унинг устави ёки низомида белгиланади).

Институт таркибий бўлимларининг ҳуқуқий мақоми, мақсад ва вазифалари, ҳуқуқ ва мажбуриятлари ўрнатилган тартибда тасдиқланган тегишли Низомлар ва қоидалар билан белгиланади.

44. Институт академик лицейи Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 сентябрдаги “Олий таълим муассасаларига кириш учун номзодларни мақсадли тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида” ги ПҚ-3290-сон қарори билан институт тасарруфига бириктирилган.

Академик лицей мустақил юридик шахс ҳисобланиб, ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва қарорлари, бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ ҳамда ўз Устави асосида амалга оширади.

45. Институт ҳузуридаги техникумлар мустақил юридик шахс ҳисобланиб, ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари ва қарорлари, бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ ҳамда ўз Устави асосида амалга оширади.

46. Институт ҳузуридаги Педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш тармоқ маркази Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4732-сон фармонида мувофиқ фаолият кўрсатади.

VI. Институтни бошқариш

47. Институтни бевосита бошқариш Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 24 декабрдаги “Давлат олий таълим муассасаларининг академик ва ташкилий-бошқарув мустақиллигини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-60-сон қарорига мувофиқ, Институт Кузатув кенгаши томонидан лавозимга тайинланадиган ва лавозимидан озод қилинадиган ректор томонидан амалга оширилади. Ректор бўлмаганда унинг вазифасини Кузатув кенгаши қарорига мувофиқ проректорлардан бири (лавозимига кўра) вақтинча бажаради.

48. Ректор Институт фаолиятига умумий раҳбарликни амалга оширади ва Институтга юкланган куйидаги вазифа ва ваколатларни қонунчилик ҳужжатлари талабларига мувофиқ амалга оширади:

проректорлар ваколатларини белгилайди, улар ўртасида вазифаларни тақсимлайди, Институтнинг таркибий бўлинма раҳбарлари ваколатларини, уларнинг таркибий бўлинмалар фаолияти учун жавобгарлигини белгилайди;

Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Олий Мажлис палаталарининг қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари, қарорлари ва фармойишлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва фармойишлари, олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруқлари, Ҳайъат ва Институт Кузатув кенгаши қарорларини амалга оширишни ташкил этади;

Институт таркибий бўлинмалари тўғрисидаги низомларни тасдиқлайди, факультет, кафедраларни ташкил этади ва тугатади;

Институтнинг барча профессор-ўқитувчилари, ходимлари ва талабалари учун бажарилиши мажбурий бўлган буйруқлар, фармойишлар чиқаради ва кўрсатмалар беради;

Институт таркибий бўлинмалари раҳбарларини ва факультет деканларини лавозимга тайинлайди ва лавозимдан озод қилади;

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишган ҳолда Институт ҳузуридаги Педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази ва академик лицей директорларини лавозимга тайинлайди ва лавозимидан озод этади;

Институт ходимлари билан меҳнат шартномаларини тузади ва бекор қилади;

юқори малакали мутахассисларни жалб этиш, кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини ошириш мақсадида ходимларга устамалар ва моддий рағбатлантиришнинг бошқа турлари миқдорларини белгилайди;

замонавий педагогик технологиялардан кенг фойдалана оладиган ва илмий изланиш олиб борадиган профессор-ўқитувчиларни танлаш мақсадида Институт ҳамда профессор-ўқитувчилар ўртасида меҳнат шартномалари тузиш амалиётини жорий этади;

Институтнинг ташкилий ва молиявий фаолияти масалаларини белгиланган тартибда ҳал қилади;

Институтнинг мол-мулкни бошқариш ва тасарруф этиш бўйича белгиланган тартибда қарорлар қабул қилади;

Институтда ташкил этиладиган якуний давлат аттестация комиссияси раисларини тасдиқлайди;

Касаба уюшма кўмитаси ва Институт кенгаши билан келишилган ҳолда Институтнинг ички тартиб қоидаларини белгилайди;

амалдаги қонунчилик ҳужжатлари ва олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруқларига зид тарзда қабул қилинган буйруқларни бекор қилади;

Институт ходимларини рағбатлантириш ва интизомий жавобгарликка тортиш масалаларини ҳал этади, ўртак кўрсатган Институт ходимларига

унвонлар бериш ва уларни Ўзбекистон Республикасининг давлат мукофотлари билан тақдирлаш тўғрисида таклифлар киритади;

профессор-ўқитувчилар штат бирликларини киритиш меъёрларини ишлаб чиқади;

Институт қабул комиссияси раиси ва масъул котибини, шунингдек, Институт томонидан ўтказиладиган имтиҳонлар бўйича қабул комиссияси раиси ва аъзолари, имтиҳонлар жадвали, имтиҳон олинадиган фанлар дастурлари ва баҳолаш мезонларини тасдиқлайди;

Институтда таълим олувчиларнинг амалиётни ўташ тартибини тасдиқлайди ва уни ташкил этади;

ўзаро келишувлар асосида бошқа олий таълим муассасалари (молиявий мустақиллик берилган) билан академик мобилликни амалга оширади;

Институт ва унинг тузилмасидаги таълим муассасалари учун ўз грифи асосида дарсликлар ҳамда бошқа ўқув ва илмий адабиётларни яратади ва нашр этади;

таълим сифатини ички назорат қилиш механизмларини белгилайди ва жорий этади;

хорижий олий таълим муассасалари билан тузилган келишувлар асосида кўшма таълим дастурларини амалга оширади;

хорижий давлат фуқароларини тўлов-контракт асосида ўқишга қабул қилиш ва масофавий таълим олиш шаклида ўқитишни ташкил этади;

чет эл фуқароларининг ўқишини хорижий олий таълим муассасаларидан республика давлат олий таълим муассасаларига кўчириш ишларини амалга оширади;

давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги барча турдаги, шу жумладан Институт ва унинг қошидаги академик лицейнинг бино ва иншоотларини куриш ҳамда улардан фойдаланиш бўйича келишувларни тузади ва амалга оширади;

таълим жараёнига замонавий педагогик технологияларни қўллай оладиган ва илмий изланиш олиб борадиган маҳаллий ҳамда хорижий профессор-ўқитувчи ва мутахассисларни шартнома асосида жалб қилади;

қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширади.

49. Ректорга илмий ва илмий-услубий раҳбарликдан ташқари бошқа ҳақ тўланадиган раҳбарлик лавозимида ўриндошлик асосида ишлашга рухсат этилмайди.

50. Институт фаолиятининг асосий масалаларини кўриб чиқиш учун ректор (Кенгаш раиси) бошқарадиган Институт Кенгаши (кейинги ўринларда – Кенгаш) ташкил этилади.

Кенгаш Институтнинг доимий фаолият юритувчи коллегиял органи ҳисобланиб, Институтнинг ўқув, ўқув-услубий, илмий-инновацион, маънавий-маърифий ва молия-хўжалик фаолиятининг тезкор масалалари бўйича коллегиял қарорлар қабул қилади.

Кенгаш таркиби ректор томонидан тасдиқланади. Кенгаш тўғрисида низом ва унинг регламенти Кенгаш томонидан тасдиқланади.

Кенгаш таркибига проректорлар, факультет деканлари, илмий котиб, мутахассислар тайёрловчи кафедралар мудирлари, айрим таркибий бўлинмалар раҳбарлари, етакчи профессор-ўқитувчилар ва бошқа ходимлар киради. Кенгаш таркибига Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ва бошқа манфаатдор вазирлик ва идораларнинг вакиллари, етук мутахассислар киритилиши мумкин.

Кенгаш қарорларининг ижроси проректорлар ва бошқа раҳбарлар томонидан таъминланади.

Кенгашнинг асосий ваколатларига қуйидагилар киради:

Институт ва Кенгашнинг иш режасини тасдиқлаш;

Институтга педагог ходимларни танлов асосида ишга қабул қилиш учун танлов ўтказиш;

Институт талабаларининг академик таътил муддатига ўқишни экстернат таълим шаклига ўтказиш бўйича аризаларини кўриб чиқиш ва қарор қабул қилиш;

Институт қабул комиссияси фаолияти ҳисоботларини тасдиқлаш;

битирувчиларга нисбатан малака талаблари, ўқув режа ва ўқув дастурларини тасдиқлаш;

бакалавриат, магистратура ва махсус дастурлар бўйича якуний давлат аттестацияси синовларининг дастурлари ҳамда баҳолаш мезонларини тасдиқлаш;

Институтда якуний давлат аттестациясини ўтказиш шаклини белгилаш;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ва номли давлат стипендияларига номзод талабаларни тавсия этиш;

талабгорларни доцент ва профессор илмий унвонларига тавсия этиш бўйича Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясига тақдимнома киритиш;

таянч докторантура, докторантура ва мустақил изланувчилик институтига қабул натижаларини тасдиқлаш;

диссертация мавзулари базаси, таянч докторантлар, докторантлар ва мустақил изланувчиларнинг диссертация мавзулари, илмий раҳбарлари ва илмий маслаҳатчиларини тасдиқлаш;

магистрлик диссертацияси ва битирув малакавий иши мавзулари ҳамда давлат аттестация комиссияси ҳисоботларини тасдиқлаш;

Институт проректорлари, факультет деканлари, шунингдек, кафедра мудирлари ва бошқа таркибий бўлинма раҳбарларининг ҳисоботларини эшитиш;

талабалар турар жойи тўловлари миқдорларини белгилаш;

ўқув адабиётларини нашр этишга тавсия этиш;

ўзининг ваколатларига киритилган масалалар юзасидан қарорлар қабул қилиш.

Кенгаш коллегиял муҳокама қилиш талаб этиладиган, Институт фаолиятига тааллуқли бўлган бошқа ҳар қандай масалани ҳам кўриб чиқиш ва унинг юзасидан қарор қабул қилиш ҳуқуқига эга.

Шунингдек, Кенгаш институтнинг Кузатув кенгаши томонидан берилган ваколатларни амалга оширади.

51. Институтда фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) ва фан доктори (Doctor of Science) илмий даражаларини берувчи Илмий кенгашлар фаолияти ташкил этилади.

52. Институтда Кузатув кенгаши ташкил этилади, унинг таркиби Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланади. Кузатув кенгаши тўғрисида Низом Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланади.

Кузатув кенгаши ўз ваколатларини Институт кенгашига топширишига, шунингдек, Институт кенгашига кирувчи ваколатларни ўз зиммасига олишга ҳақли.

53. Кузатув кенгашининг асосий ваколатлари қуйидагилардан иборат:
институтнинг узоқ ва ўрта муддатли стратегик ривожлантириш дастурини тасдиқлаш, халқаро эътироф этилган ташкилотлар рейтингининг юқори ўринларидан жой олиш бўйича мақсадли чора-тадбирларни белгилаш ҳамда унинг амалга оширилишини назорат қилиб бориш;

институтнинг ўрта муддат учун шакллантириладиган бизнес-режаси ҳамда даромадлар ва харажатлар параметрларини тасдиқлаш, уларнинг ижросини муҳокама қилиш;

таълим йўналишлари, мутахассисликлар ҳамда ихтисосликлар бўйича тўлов-контракт асосида ўқишга қабул параметрларини белгилаш тўғрисида қарор қабул қилиш;

институт олдига қўйилган вазифалар ижроси, мақсадли кўрсаткичларга эришиш ҳолати бўйича ректор ва проректорлар фаолиятини ўрганиш ҳамда ахборотини эшитиш;

институтнинг ички аудит ва молиявий назорат хизматига молиявий назорат ўтказиш учун қўшимча топшириқ бериш ҳамда назорат тадбирларининг натижаси юзасидан ҳисобот олиш;

институтни ривожлантириш ва унинг молиявий фаолияти билан боғлиқ масалаларни ҳал этиш, шу жумладан нодавлат нотижорат ташкилоти кўринишида мақсадли капитал жамғармасини шакллантириш;

илм-фан ва инновацияларни ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан келиб чиқиб, институтнинг инновацион ва бошқа жамғармалар маблағларини сарфлаш тартиби ва йўналишларини мустақил белгилаш;

институт раҳбари ва ходимлари ҳамда профессор-ўқитувчилари фаолиятига баҳо бериш, улар фаолиятининг самарадорлигини баҳолаш мезонларини (KPI) тасдиқлаш;

институт ҳамда унинг ҳузуридаги таълим ва илмий муассасаларнинг раҳбари ва ходимлари, профессор-ўқитувчилари, шунингдек, хорижий

мутахассислар учун меҳнатга ҳақ тўлаш миқдори ва самарадорлик мезонларига асосланган рағбатлантириш тартибини мустақил белгилаш;
 институтнинг бюджетдан ташқари ривожлантириш жамғармаси маблағларидан фойдаланиш тартибини, шу жумладан харажатларнинг тақсимланиш улушини мустақил белгилаш.

VII. Жамоат ташкилотлари

54. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги ПҚ-3775-сон қарорига мувофиқ институтда самарали жамоатчилик назоратини жорий этиш мақсадида талабалар, ота-оналар, Ёшлар иттифоқининг институтдаги фаоллари, кадрлар буюртмачилари, профессор-ўқитувчилар ҳамда фуқаролик жамияти институтлари вакилларидан иборат таркибда Жамоатчилик кенгаши ташкил этилади.

Жамоатчилик кенгашининг асосий вазифалари:

таълим сифати, профессор-ўқитувчиларнинг билими ва педагогик маҳорати, талабаларга яратилган шарт-шароитлар устидан тизимли равишда мониторинг ўрнатиш;

Институтга профессор-ўқитувчилар таркибига ишга қабул қилинаётган номзодлар бўйича тавсиялар бериш;

талабаларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш, уларнинг педагог кадрлар ҳақидаги фикрини тўлиқ ўрганиш мақсадида ижтимоий сўровлар ўтказиш;

Институтдаги таълим жараёнини такомиллаштириш бўйича таклифлар тайёрлаш ва муассасанинг тегишли кенгаши муҳокамасига киритиш.

55. Институтда касаба уюшмаси ва бошқа жамоатчилик ташкилотлари фаолият кўрсатади.

Профессор-ўқитувчилар ва ходимларнинг меҳнат ҳуқуқи ва манфаатларини ҳимоялаш касаба уюшмаси марказий кенгаши ҳамда уларнинг институтда сайланган вакили амалдаги қонунчилик асосида ўз иш фаолиятини олиб боради.

VIII. Институтнинг молия-ҳўжалик фаолияти ва моддий-техник база

56. Институтга ушбу Уставда назарда тутилган фаолиятни амалга ошириш ва фойдаланиш мақсадида давлат томонидан бинолар, иншоотлар, мулкӣ мажмуалар, институтнинг паспортига мувофиқ асбоб-ускуналар, шунингдек истеъмол, ижтимоий, маданий ва бошқа мақсадлар учун зарур бўлган мулклар бириктирилган.

Институт Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан амалга ошириладиган давлат тасарруфидан чиқариладиган ва хусусийлаштириладиган объектлар қаторига киритилган. Институтга ажратилган ер участкалари муддатсиз бепул фойдаланиш учун бириктирилган.

57. Қуйидагилар Институт фаолиятини молиялаштириш манбалари ҳисобланади:

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари;

бакалавриат ва магистратура талабалари, шунингдек олий таълимдан кейинги таълимнинг тўлов-контракт шакли асосида ўқитишдан тушадиган маблағлар;

хорижий фуқароларни тўлов-контракт шакли асосида ўқитишдан Институт валюта ҳисоб рақамига тушадиган хорижий валюта маблағлари;

бюджетдан ташқари ривожлантириш жамғармаси маблағлари;

давлат илмий-техникавий дастурлари доирасида ўтказиладиган грант танловлари натижалари бўйича фундаментал, амалий ва инновацион тадқиқотлар учун ажратиладиган маблағлар;

пуллик курсларни ташкил этиш ва бошқа турдаги хизматларни кўрсатишдан тушадиган барча маблағлар;

халқаро молия ташкилотларининг грантлари;

жисмоний ва юридик шахсларнинг хайрия эҳсонлари ва мақсадли бадаллари;

Институт фаолиятида амалга оширилган илмий, ўқув ва бошқа инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш, шунингдек Институтнинг мол-мулкни ижарага беришдан, шартнома асосида қонунчилик ҳужжатларида рухсат берилган хизмат кўрсатиш орқали тушган маблағлар;

қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа маблағлар.

58. Институтда меҳнатга ҳақ тўлаш амалдаги қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ белгиланади. Институт ходимига меҳнатга ҳақ тўлаш, ўз функционал вазифаларни ҳамда меҳнат шартномасида назарда тутилган ишларни бажарганлиги учун тўланади.

59. Институтда, юқори малакали мутахассисларни жалб этиш, кўрсатиладиган таълим хизматлари сифатини ошириш мақсадида профессор-ўқитувчи ва ходимларга устамалар ҳамда моддий рағбатлантириш махсус жамғармаси (Тўлов-контракт асосида ўқитишдан тушадиган маблағларнинг 30 фоизи миқдорида) ташкил этилади.

Махсус жамғарма маблағлари штатдаги бошқарув, профессор-ўқитувчилар, илмий, ўқув-ёрдамчи, техник ва хизмат кўрсатувчи ходимларга ҳар ойлик устамалар ва моддий рағбатлантиришнинг бошқа турларини ўрнатишга йўналтирилиб, уларнинг миқдори Институт Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланадиган тартиб (низом) асосида белгиланади.

Моддий рағбатлантириш жамғармаси маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартиби, шунингдек ҳар ойлик устамаларни ўрнатиш мезонлари Институт Кузатув кенгаши томонидан мустақил белгиланади.

Институт ходимларига қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда бошқа моддий рағбатлантириш ва моддий ёрдам чоралари кўрсатилиши мумкин.

60. Институт қуйидаги масалалар бўйича мустақил қарор қабул қилади:

асосий воситалар ва товар-моддий бойликларни (бино ва иншоотлар ҳамда ўқув-илмий лаборатория жиҳозлари бундан мустасно) сотишдан тушган маблағларни тўлиғича ўзларининг ривожлантириш жамғармаси бўйича шахсий ғазна ҳисобварағида жамлаш ва сарфлаш;

ривожлантириш жамғармасига тушган барча маблағлардан моддий-техника базани мустаҳкамлашга, ўз ходимларини ижтимоий ҳимоя қилиш ва моддий рағбатлантиришга, фаолиятни самарали ташкил этиш билан боғлиқ бошқа тадбирларга сарфлаш улушини белгилаш;

ўқув жараёнига жалб этилган хорижий юқори малакали ўқитувчи ва мутахассислар меҳнатига ҳақ тўлаш миқдорларини бозор конъюнктурасидан келиб чиқиб белгилаш (қонунчилик ҳужжатларида белгиланган миқдорлардан кам бўлмаган миқдорда);

хорижий давлатлардан ўқув ва илмий адабиётлар, дарсликлар ҳамда ўқув қўлланмаларни муаллифлик ҳуқуқи бўлган ишлаб чиқарувчилардан тўғридан-тўғри харид қилиш;

бўш турган бино ва иншоотларда пуллик хизматлар кўрсатиш тартибини белгилаш;

автотранспорт воситаларининг йўл босиш йиллик лимити ва уларга хизмат кўрсатиш талабларини белгилаш;

сақлаш харажатлари, вазифа ва мажбуриятларни бажариш, ўқитишнинг инновацион шакл ва услубларини жорий этиш ҳамда ходимларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, моддий-техник базани мустаҳкамлаш, дастурий таъминотлар, замонавий ахборот-коммуникация воситалари, ўқув ва илмий лабораториялар ҳамда сарфланадиган лаборатория материалларини (реактивлар, кимёвий идиш, бутловчи, биологик материаллар ва бошқа объектлар), шу жумладан китоблар, журналлар, ўқув адабиётлари харид қилиш ва чоп эттириш учун маблағларни мустақил сарфлаш;

Институт инфратузилмасига сервис хизматлари кўрсатишнинг алоҳида турлари, жумладан бино ва иншоотлар, талабалар турар жойлари, спорт объектларидан фойдаланиш, уларни тозалаш, таъмирлаш, компьютер техникаси ва телекоммуникация тармоқларини сақлаш ва юридик хизматлар кўрсатишни аутсорсинг шартларида ташкил этиш.

61. Қўшимча таълим хизматларини кўрсатиш, иқтисодиёт тармоқлари мутахассисларининг малакасини ошириш ва бошқа пуллик хизматларни жорий этиш Институтнинг қўшимча вазифаси бўлиб ҳисобланади.

62. Институт илмий, ўқув ва бошқа инновацион ишланмаларни тижоратлаштириш, шунингдек шартнома асосида қонунчилик ҳужжатларида рухсат берилган бошқа хизмат кўрсатиши ва ўзининг уставида белгиланган мақсадларига мос келадиган доираларда бошқа тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши мумкин.

Институт асосий воситалар ва товар-моддий бойликларни сотиш, пуллик курсларни ташкил этиш ва бошқа турдаги хизматларни кўрсатиш, Институтнинг мол-мулкани ижарага беришдан тушадиган барча маблағларни мустақил равишда тасарруф қилади.

63. Институт ўз фаолияти натижаларининг бухгалтерия ҳисобини белгиланган тартибда амалга оширади, молия ва статистика ҳисоботларини юритади.

IX. Халқаро ҳамкорлик

64. Институт қонунчилик ҳужжатлари ҳамда мазкур Уставга мувофиқ хорижий мамлакатларнинг таълим ва илмий марказлари, халқаро жамғармалар ва бошқа ташкилотлар билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш ҳуқуқига эга.

Институтда чет эл фуқароларини ўқитиш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, шунингдек, олий таълим муассаси илмий-педагогик ходимларининг хорижий мамлакатларда педагогик ва илмий-тадқиқот ишларини амалга ошириш Ўзбекистон Республикасининг ваколатли давлат органлари ва хорижий давлатларнинг таълимини бошқариш бўйича тегишли органлари ўртасида тузилган шартномалар, шунингдек Институтнинг хорижий давлатларнинг таълим ва илмий марказлари, халқаро жамғармалар ва бошқа ташкилотлар билан қонунчиликка мувофиқ белгиланган тартибда тузилган шартномалари (битим, меморандумлари), чет эл фуқаролари ва хорижий юридик шахслар билан бевосита тузилган шартномалари асосида амалга оширилади.

65. Халқаро фаолиятни амалга оширишда Институт қуйидаги ҳуқуқларга эга:

- Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда таълим соҳасидаги халқаро нодавлат нотижорат ташкилотларига аъзо бўлиш;
- хорижий давлатларнинг таълим ва илмий марказлари, ташкилотлари билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиш юзасидан шартномалар (битим, меморандумлар) тузиш;
- хорижий олий таълим муассасалари ва илмий марказларидан юқори малакали профессор-ўқитувчилар ва олимларни дарс машғулотларига, ҳамкорликда ўқув адабиётлари ва илмий-тадқиқот ишларини амалга оширишга жалб этиш;
- хорижий ҳамкорлик иштирокида Институт таркибий бўлинмалари (қўшма факультетлар, қўшма таълим дастурлари, марказлар ва бошқа бўлинмалар)ни қонунчиликда кўзда тутилган тартибда ташкил этиш;
- Институт профессор-ўқитувчилари, ходимлари, докторантларини хорижий мамлакатларга малака ошириш ва стажировкага юбориш, фалсафа доктори (PhD) ва магистратура дастурлари бўйича таълим олишларини таъминлаш;
- Институт талабаларини хорижий мамлакатларга стажировка, амалиёт ўташ, конференция ва танловларга юборишни таъминлаш;
- Институт ва хорижий олий ўқув юртлари талабалари, таянч докторантлари ва докторантлар, профессор-ўқитувчилар ва илмий ходимлари билан икки томонлама ўзаро алмашинув дастурларини ташкил этиш;
- хорижий фуқароларни белгиланган тартибда Институтга ўқишга қабул қилиш ва уларнинг ўқишлари учун шарт-шароитлар яратиш.

Институт қонунчиликда белгиланган тартибда хорижий мамлакатларнинг институтлари ва ташкилотлари билан бошқа йўналишларда ҳам ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш ҳуқуқига эга.

66. Институт профессор-ўқитувчилари ва ходимлари ҳамда талабаларининг чет эл хизмат сафарлари амалдаги қонунчилик ҳужжатлари, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари асосида амалга оширилади.

Таълим сифатини яхшилаш борасидаги илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш ва амалиётга татбиқ этиш жараёнларини жадаллаштириш мақсадида Институт ректор ва проректорларининг хорижий мамлакатларга хизмат сафарига чиқишини Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигини хабардор қилган ҳолда амалга оширилади. Бунда Институт раҳбар ходимлари томонидан хорижий мамлакатга хизмат сафари олдидан асосий маълумотлар, жумладан мамлакат номи, ташриф мақсади ва режаси, сафар натижалари юзасидан эса Институт кенгашига амалга оширилган ишлар ва харажатлар тўғрисида тақдим этилган ҳисобот Институт веб-сайтига жойлаштирилади.

67. Хорижий сафарларга юборилган раҳбар ходимлар, профессор-ўқитувчилар, илмий ходимлар ва талабалар (бакалавр ва магистр) бажариш лозим бўлган режа ишларини бажармаган ва ўз хатти-ҳаракатлари билан Институт шаънига путур етказган ҳолларда уларга нисбатан қонунчилик асосида тегишли чоралар кўрилади.

68. Институт ташқи иқтисодий фаолиятдан тушган валюта, моддий тушумлар қонунчиликка биноан мазкур Уставда белгиланган Институт фаолиятини моддий таъминлаш учун ишлатилади.

Х. Яқуний қоидалар

69. Институт Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган тартибда қуйидагиларга жавоб беради:

- таълим жараёнида ўқув режа ва жадвалларга мувофиқ таълим
- дастурлари ҳажмини тўлиқ бажармаганлиги;
- таълим жараёни вақтида Институтда таълим олувчилар ва ходимларнинг ҳаёти ва соғлиғи;
- таълим олувчилар ва ходимларнинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилганлиги;
- амалдаги қонунчиликда назарда тутилган бошқа вазифаларни бажармаганлиги.

70. Институт Ўзбекистон Республикасининг қонунчилигига мувофиқ қайта ташкил қилиниши ёки тугатилиши мумкин.

71. Устав Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонунига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан тасдиқланиб, ўрнатилган тартибда давлат рўйхатидан ўказилгандан сўнг кучга киради.

Институт Уставига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг буйруғи билан амалга оширилади.

**Toshkent shaxar Shoyhontohur tumani
Davlat xizmatlari markazi tomonidan
2022 yil “_____” martda
_____sonli reestr raqami bilan
“R`OYXATGA OLINGAN”**

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va
O`rta maxsus ta`lim vazirligi
2022 yil “_____” martda
_____ - sonli buyrug`i bilan
“TASDIQLANGAN”**

TOSHKENT KIMIYO- TEXNOLOGIYA INSTITUTI

USTAVI

Toshkent- 2022

Toshkent kimyo-texnologiya institutining NAMUNAVIY USTAVI

I. Umumiy qoidalar

1. Toshkent kimyo-texnologiya instituti (keyingi o'rinlarda - Institut) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991 yil 6 maydagi PF- 203 sonli farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 13 maydagi 130-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

2. Institut davlat oliy ta'lim Institutsi hisoblanib, oliy ta'limning asosiy va qo'shma ta'lim dasturlarini bajarish bo'yicha ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'quv, ilmiy-metodik va boshqa faoliyatlarni amalga oshiradi hamda ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi.

3. Institut o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyruqlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

3. Institut bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, Institut shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olishni tashkil etadi.

4. Institutda ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat:
ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki).

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq Institutda ta'lim olishning boshqa shakllari ham joriy etilishi mumkin.

5. Institut yuridik shaxs hisoblanadi. Operativ boshqaruvida mol-mulkka egalik qiladi, ushbu mol-mulk bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq javob beradi, o'z nomidan mol-mulk sotib olishi va mulkiy hamda nomulkiy huquqlarni amalga oshirishi, zimmasiga majburiyat olishi, suda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Institut mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi yoki uning tegishli boshqarmalarida shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga, shu jumladan, bank Institutlarida valyuta bo'yicha hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi yozilgan muhrga, shtamplar va boshqa rekvizitlarga ega.

Institutning rasmiy nomi:

davlat tilida: Toshkent kimyo-texnologiya instituti (TKTI)

rus tilida: Ташкентский химико-технологический институт (ТХТИ)

ingliz tilida: Tashkent Institute of Chemical Technology (TICT)

Institutning joylashgan manzili (pochta manzili): Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi 32-uy.

6. Institut o'z faoliyatini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, kadrlar buyurtmachilari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

II. Institutning asosiy maqsadi, vazifalari va funksiyalari

7. Har tomonlama rivojlangan, Vatanini qadrllovchi, davlat va jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini his qiluvchi, mamlakat kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlamini hurmat qiluvchi, qonunlarga so'zsiz itoat etuvchi hamda xalqaro ta'lim maydonida raqobatbardosh, yuqori malakali, zamonaviy iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash Institutning asosiy maqsadi hisoblanadi.

8. Asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagilar Institutning asosiy vazifalari hisoblanadi:

zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar tayyorlashni ta'minlash;

iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha talabalarning fundamental, bazaviy, shuningdek, amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlaydigan o'quv reja va dasturlar asosida bakalavrlar, magistrlar tayyorlash;

ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, talabalarda tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda egallash va ulardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, innovatsion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng qo'llash;

fanlarni tanlash imkoniyatini ta'minlagan holda Yevropa kredit tizimini (European Credit Transfer and Accumulation System) joriy etish, shu jumladan talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning xalqaro shartli birliklarini (kreditlar) o'tkazish va jamlash tizimini qo'llagan holda o'quv jarayonini tashkil etish;

Institutning professor-o'qituvchilar tarkibini yuqori darajada kasbiy pedagogik mahoratga, huquqiy va siyosiy madaniyatga ega mutaxassislar bilan mustahkamlash;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy Institutlari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini faollashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, iqtisodiyotning tegishli sohalari hamda boshqa tashkilotlarda amaliy ish tajribasiga ega bolgan mutaxassislar ta'lim jarayoniga keng jalb etish, ularning malakasini oshirishda samarali tizimni yaratish, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim, tadqiqot Institutlarining yuqori

malakali mutaxassislarini o'quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish jarayonlariga jalb qilish;

tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv majmualarini, qo'llanmalarni yaratish va ularni o'quv jarayonlariga tatbiq etish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qilish;

milliy iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari bo'yicha ustuvorlikka ega bo'lgan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va natijalarini amaliyotga tatbiq qilish;

ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish va bu ishlarga talabalarni jalb etish;

«HEMIS» platformasini yoki oliy ta'lim tizimini avtomatik boshqarishga qaratilgan boshqa tizimlarni joriy etgan holda ochiq, shaffof, sub'ektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish;

talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, huquqiy, siyosiy madaniyatini va huquqiy ongini oshirish bo'yicha samarali tizimni yaratish, ularda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, korrupsiyaga murosasizlik tuyg'usini shakllantirish hamda rivojlantirish.

9. Institut o'z vazifalarini amalga oshirish maqsadida quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

davlat ta'lim standartlari asosida mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlar, fuqarolik jamiyatini shakllantirish va zamonaviy xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashni tashkil etadi;

huquqiy va siyosiy madaniyatga, amaliy ish tajribasiga, kasbiy va pedagogik mahoratga ega yuqori malakali kadrlarni ta'lim jarayoniga kengjalb etish bo'yicha choralarni ko'radi, shuningdek, tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi;

o'quv jarayonini ta'lim berishning kredit-modul tizimi va innovatsion o'qitish usullarini qollagan holda umume'tirof etilgan xalqaro ta'lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda talabalarda iqtisodiyotning tegishli sohalari bo'yicha tizimli tahlil qilish qobiliyati va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari asosida olib boradi;

talabalarning mustaqil tayyorgarligini chuqurlashtirishni hisobga olgan holda ish beruvchilar ehtiyojidan kelib chiqib, tahliliy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, o'quv reja va dasturlar hamda o'quv- metodik materiallarni o'quv jarayonida qo'llaydi;

o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash, talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni global axborot va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi;

professor-uqituvchilar tarkibi mehnatini normalashtirishni faqat o'quv tushadigan tadbirlarga asoslangan holda mustaqil amalga oshiradi hamda pedagogik xodimlar tomonidan ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy-metodik, ma'naviy-

axloqiy va tarbiyaviy ishlarning bajarilishini rag'batlantiradi;

Institut tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar natijalarini o'quv rejalari va ta'lim dasturlariga joriy etish uchun fanlami o'qitish sifati va darajasini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy va o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqadi;

tizimli asosda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, ta'lim jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy-ta'lim Institutlari, tahliliy, tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlaydi;

ijobiy xalqaro tajribani kengroq qo'llash, shu jumladan, talabalar o'quv yuklamasi hajmini aniqlashning shartli birliklari (kreditlar)ni o'tkazish va jamlash tizimini qo'llaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etadi, ulaming samaradorligini oshirish va tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga keng joriy etish orqali, fan - ta'lim - ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlaydi;

o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimni baholash usullarini takomillashtirib, o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng q'llaydi hamda o'quv bazasini takomillashtirib boradi;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy Institutlari bilan hamkorlikni, qo'shma huquqiy tadqiqotlarni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlarini zamonaviy talablar, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

o'z oldida turgan vazifalarni bajarish maqsadida zamonaviy o'quv va moddiy-texnik bazani yaratadi, o'quv, ilmiy-tadqiqot bolinmalarni, kafedralarni o'qitishning zamonaviy texnik vositalari, axborot kommunikatsiya tizimlari va dasturiy majmualari bilan ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasining ilmiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish hamda rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi;

talabalarni jamiyatning tokaqonli a'zosi, vatanparvar, vijdonan va halol mehnat qiluvchi, o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun kompleks chora tadbirlarni amalga oshiradi;

talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga ko'maklashish, ularda milliy g'urur, vatanparvarlik va fidoiylik tuyg'ularini shakllantirish choralarni ko'radi;

ma'naviy, madaniy, milliy qadriyatlarni keng targ'ib qilish, kitobxonlikni rivojlantirish, talabalarni milliy va jahon adabiyoti durdonalariga qiziqishini oshirish hamda dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshiradi;

Institut xalqaro reytingi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chet el fuqarolari uchun ta'lim olish imkoniyatini kengaytiradi;

Axborot-resurs markazini huquqiy, ijtimoiy-siyosiy va iqsodiy mazmundagi bosma va kitob mahsulotlari hamda o'quv, ilmiy va boshqa adabiyotlar, jumladan xorijiy adabiyotlar fondi, o'qitishning texnik vositalari, shuningdek, global axborot-huquqiy va ta'lim resurslarini muntazam yangilab borishni ta'minlaydi.

III. Institutning talabalari, tinglovchilari va izlanuvchilari

a) Talabalar:

10. Institutga talabalarni qabul qilish O'zbekiston Respublikasi ta'lim Institutlariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko'ra to'plangan ballarning reyting tizimi bo'yicha amalga oshiriladi.

Institutga qabul barcha uchun (grant, to'lov-kontrakt bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlari va kasbiy (ijodiy) imtihonlarda eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari ketma-ketligi asosida belgilangan to'lov-kontrakt kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar. Qonunchilikka muvofiq test sinovlarisiz muayyan imtiyoz asosida o'qishga qabul qilish o'atilgan tartibda amalga oshiriladi.

Xorijiy fuqarolarni o'qishga qabul qilish amaldagi qonunchilikqa binoan amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 606-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim Institutlarida ikkinchi va undan keyingi ta'limni olish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar Institutda ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun to'lov-kontrakt (shartnoma) asosida o'qishga qabul qilinishi mumkin.

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish uchun abituriyentlar qabulini Institut qabul komissiyasi amalga oshiradi.

Qo'shma ta'lim dasturlari asosida kirish sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan hamda to'lov-kontrakt kvotalari doirasida to'lov-kontrakt shartlarini bajargan abituriyentlar o'qishga qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Institut rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs Institutning talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi hamda reyting daftarchasi bepul beriladi.

11. Talabalar quyidagi huquqlarga ega:

fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti va yutuqlariga mos bilim olish;

Institut axborot resurs markazida mavjud bolgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;

bepul maslahatlar va tavsiyalar olish;

auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'qatilgan tartibda bepul foydalanish;

ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yuzasidan o'z taklif-mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim Institutsi, fakultet va kafedra raxbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;

Institut va fakultet miqyosida otkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;

ilmiy tadqiqot ishlarining barcha turlarida, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etish, ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berish;

Institutda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;

o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va boshqa qonunchilikka zid bolmagan jamoat ishlarida ishtiroq etish;

o'qishdan bo'sh vaqtlarida Institutning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash;

yetakchi xorijiy ta'lim Institutlarida akademik almashinuvda ishtirok etish.

Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bolgan qonunchilik hujjatlariga zid bolmagan boshqa huquqlardan foydalanishi mumkin.

Talaba o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

12. Talabalarining majburiyatlari quyidagilar:

o'quv reja va dasturlar talablarini belgilangan muddatlarda bajarish hamda bilimlarni egallash;

mazkur Ustav, Institut ichki tartib-qoidalari, Odob-axloq kodeksi, Talabalar turar joyi qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga rioya etish;

Institut binolari va uning boshqa mol-mulkini asrab-avaylash, to'lov-kontrakt bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

Vatanga va xalqiga halol xizmat qilishga tayyor, yuqori bilimli mutaxassis bo'lib yetishish uchun puxta bilim olish, o'z kasbiy salohiyatini rivojlantirish;

ta'lim olish jarayonida jamiyatning axloqiy tamoyillariga, ma'naviy qadriyatlariga, qonun talablariga, o'zaro munosabatlarning yuksak talablariga javob beruvchi qoidalarga qat'iy amal qilish;

tanlagan ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilim olish va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

o'quv jarayoni talablariga bo'ysunishi, o'quv mashg'ulotlarini uzrli sababsiz

qoldirmaslik, darslarga kech qolib kelmaslik, dars mashg'ulotlari yakunlanmasdan avval ketib qolmaslik;

ta'lim jarayoni bilan bogliq vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, o'qituvchilarning fanni o'zlashtirish bilan bog'liq topshiriqlarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarish, mashg'ulotlarga zarur o'quv qurollari bilan kelish;

tegishli kafedra va fakultet bilan mustahkam aloqada bo'lish, fakultet rahbariyatining qonuniy topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;

bilimlarni egallashda tashabbus va g'ayrat ko'rsatish, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik;

barcha bilan xushmuomalada bo'lish;

Institut mol-mulkiga ehtiyotkor va tejamkor munosabatda bolish, ularga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ziyon yetkazmaslik, ziyon yetkazilgan taqdirda moddiy zarar o'rnini o'rnatilgan tartibda qoplash, moddiy ashyolarni auditoriyadan yoki binodan tashqariga ruxsatsiz olib chiqmaslik;

bino ichida, yo'laklarda, auditoriyalarda sanitariya qoidalariga rioya qilishi, ifloslantirmasligi, alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xususan tashqi ko'rinishi va yomon hulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, axloq-odob normalariga so'zsiz bo'ysunishi;

o'quv mashg'ulotiga kelmagan holatda (shu jumladan, kasalligi tufayli) uch kundan kechikmasdan bevosita o'zi yoxud biriktirilgan tyutori orqali dekanatni tegishli ravishda, xususan yozima tarzda xabardor qilish, qatnashmaslik sabablarini ko'rsatish;

xorijiy tashkilotlar grantlarida qatnashgani taqdirda bu haqda fakultet dekanini xabardor qilish, grant bilan bog'liq holda chet elga jo'nab ketishdan avval o'rnatilgan tartibda ruxsat olish;

o'z ilmiy, ma'naviy-axloqiy, g'oyaviy-siyosiy saviyasini muntazam oshirib borishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi islohotlar va yangilanishlardan xabardor bolish;

o'quv intizomiga, Institut kengashi qarorlari, rektor buyruqlari hamda ta'lim tizimiga doir normativ-huquqiy hujjatlarda quyilgan maqsad va vazifalarga, shuningdek, o'zining majburiyatlariga rioya etish.

Talabalarga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

13. Institut hududida talabalarga quyidagilar taqiqlanadi:

alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqatish va iste'mol qilish;

milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday shakldagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib qilish;

Institut binolari va hududidagi moddiy-texnik, boshqa mol-mulkka zarar yetkazish;

o'qish vaqtida Institut ma'muriyati ruxsatisiz chet el davlatlariga borish.

15.0'qish davrida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga

ega bo'lgan talabalar Institutning budjetdan tashqari mablaglari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda Institutning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida yetakchi xorijiy ta'lim Institutlariga talabalarning akademik almashinuvi doirasida o'qishga yuborilishi mumkin.

Talabalarining akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim Institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Institutda xorijiy mamlakatlarning talabalari ham o'z o'qishini davom ettirishi mumkin.

16. Davlat granti va to'lov-kontrakt asosida o'qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan shaklida ta'lim olayotgan talabalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va miqdorda stipendiya bilan ta'minlanadilar (xorijiy talabalar bundan mustasno).

Talabalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari va Institutning maxsus stipendiyalarini olish huquqiga egadirlar.

17. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish, oilasining betob a'zosini (otasi, onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, turmush o'rtog'i, farzandi) parvarish qilish uchun talabaga akademik ta'til berilishi mumkin. Ushbu ta'tilni berish tartib-qoidalari Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi 344-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim Institutlari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risidagi Nizomda belgilangan.

18. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga Institutda o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

19. Institutning Talabalar turar joyi sig'imidan kelib chiqqan holda muhtoj talabalar Institut talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi.

Talabalar turar joyi uchun tolov talabalar turar joy lari da kommunal-maishiy xizmatlar uchun tolovlarni inobatga olib, Institut Kengashi tomonidan belgilanadi.

Turar joyga muhtoj talabalar mavjud bolgan holda, oliy ta'lim Institutsining talabalar turar joylari maydonidan boshqa maqsadlarga foydalanish (ijaraga berish, boshqa kelishuvlarjga ruxsat etilmaydi.

20. Institutdan chetlashtirilgan talaba Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega.

Institutning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim Institutlariga o'qishlarini ko'chirish (o'qishga qayta tiklanish) huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim faoliyatini olib borish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan nodavlat oliy ta'lim Institutlari va boshqa mamlakatlar oliy ta'lim Institutlarining filiallari (markazlar, bo'limlar, o'quv-

maslahat punktlari va boshqalar) dan talabalarni Institutga o‘qishini ko‘chirish (o‘qishga tiklash) taqiqlanadi.

Talabalar o‘qishini bir oliy ta’lim Institutsidan boshqasiga ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi (bundan chet el fuqarolarining o‘qishini xorijiy oliy ta’lim Institutlaridan Institutga ko‘chirish mustasno).

21. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o‘qish vaqti hisobidan ta’lim jarayoni bilan bog‘liq bolmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

22. Talaba o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda unga nisbatan hayfsan va talabalar safidan chetlatish intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.

23. Talaba Institutdan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

- a) o‘z xohishiga binoan;
- b) o‘qishning boshqa ta’lim Institutsiga ko‘chirilishi munosabati bilan;
- v) o‘quv intizomini va oliy ta’lim Institutsining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;
- g) bir semestr davomida darslarni uzrlisiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;
- d) o‘qish uchun belgilangan tolov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (tolov-kontrakt bo‘yicha tahsil olayotganlar uchun);
- e) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;
- j) sud qaroriga ko‘ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);
- z) vafot etganligi sababli.

24. Belgilangan muddatlarda fanlarni o‘zlashtira olmagan (akademik qarzdor bolgan) talaba Institut rektori buyrug‘i bilan kursdan qoldiriladi. Akademik qarzdorligi tufayli kursdan qoldirilgan talaba to‘lov-kontrakt asosida o‘qishini quyidagi kursdagi o‘quv semestri boshidan boshlashi mumkin.

Institutda kredit-modul tizimida o‘qiyotgan talabalariga nisbatan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim Institutlarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 8-bobi qoidalari qo‘llaniladi.

25. Institut ma’muriyati tashabbusi bilan ushbu Ustavning 23-bandi “d” kichik bandiga ko‘ra talabalarni o‘qishdan chetlashtirish talabalar kasaba uyushmasining yozma roziligini inobatga olgan holda (kasaba uyushmasi a’zosi bolgan talabalar uchun) amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu Ustavning 23-bandi “v” kichik bandiga ko‘ra chetlashtirilayotgan holda, ta’lim Institutsining Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

26. Intizomiy jazoga tortilayotgan talaba o‘ziga qollanilgan jazo chorasining qonuniyligi va adolatliligi yuzasidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat bilan Institut rektoriga, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga yoki boshqa vakolatli tashkilotlarga murojaat etishi mumkin.

Talabaga nisbatan qollanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma’lumot uning

shaxsiy yig‘ma jildida saqlanadi.

Talaba Institutdan chetlashtirilganda, unga shaxsiy hujjatlari, belgilangan shakldagi akademik ma‘lumotnoma topshiriladi va ulaming nusxasi shaxsiy yig‘ma jildda saqlanadi.

Intizomiy jazo choralar talabalaming kasallik yoki ta‘tilda bo‘lgan vaqti hisobga olinmagan holda xatti - harakat aniqlangandan so‘ng bir oydan va hatti-harakat sodir etilganidan so‘ng olti oydan kechiktirilmay qo‘llaniladi. Talabalar kasallik paytida, akademik ta‘til yoki homiladorlik va tug‘ish holati bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘til paytlarda talabalarga intizomiy jazo choralarini ko‘rish taqiqlanadi.

Talaba kasal bo‘lganligi o‘zi yoki uning ota-onasi tomonidan yozma ariza bilan bevosita dekanatga, odatda, uch kundan kechiktirilmasdan ma‘lum qilinadi va tibbiy ma‘lumotnomaning aslini taqdim etadi.

c) **Tinglovchilar:**

27. Institut huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy yoki tarmoq markazida o‘qiyotgan shaxslar tinglovchilar hisoblanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibi, tinglovchilarni o‘qitish shartlari va huquqlari qonun hujjatlariga muvofiq tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi.

v) **Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilar:**

28. Institutda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda mutaxassislikni chuqur o‘rganish va doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda o‘qiyotgan fuqaro tayanch doktorant va doktorant hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganish va ular tomonidan ilmiy izlanishlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalari izlanuvchilari uchun tashkil etilgan oliy ta‘limdan keyingi ta‘limda o‘qiyotgan fuqaro mustaqil izlanuvchi hisoblanadi.

Tayanch doktorant, doktorant va mustaqil izlanuvchilarni o‘qitish shakllari va muddatlari, ularni qabul qilish hamda faoliyatini tashkil etish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

IV. O‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-uslubiy ishlar

29. Institut mutaxassisligi bo‘yicha quyidagi ta‘lim turlari asosida o‘qitishni amalga oshiradi:

oliy ta‘lim;

oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim;

kadrlarni qayta tayyorlash va ulaming malakasini oshirish;

Institut oliy ta'limning bakalvriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.

Institutda, umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlangich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlangich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot oladi.

Institut ta'limning asosiy ta'lim dasturlarini ikki bosqichda amalga oshiradi: bakalvriat va magistratura.

Bakalvriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Bakalavr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha ta'lim yo'nalishi bo'yicha «bakalavr» darajasi beriladi hamda davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura tegishli bakalvriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalvriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Magistr dasturini tugatgan bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan muayyan mutaxassislik bo'yicha «magistr» darajasi beriladi va davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Bakalavr va magistrlik davlat namunasidagi diplom uning egalariga kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish yoki tanlangan ta'lim yo'nalishiga va mutaxassisligiga muvofiq ta'lim Institutlarining navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan mutaxassisligi bo'yicha ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'limning turli bosqichida asosiy ta'lim dasturlari bo'yicha dastlabki ta'lim olish, ikkinchi oliy ta'lim olish sifatida qaralmaydi.

30. Institutda ta'lim jarayonini tashkil etish, Institut tomonidan ishlab chiqilgan va kasbiy standartlar asosida tasdiqlangan o'quv rejalar, o'quv dasturlari, malaka talablari, Institut rektori (o'quv ishlari bo'yicha prorektor) tomonidan tasdiqlanadigan yillik kalendar o'quv jadvali hamda mashg'ulotlar jadvali bilan tartibga solinadi.

Ta'lim jarayonini maqsadli yo'naltirish yoli bilan tashkil etish, ya'ni ta'lim shakllari, uslub va vositalarni tanlash yoli bilan Institut talabalariga oliy ta'limning asosiy kasbiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun zaruriy sharoitlarini yaratib berilishi lozim.

31. Institutda o'quv mashg'ulotlarining quyidagi asosiy turlari belgilangan: ma'ruza, konsultatsiya, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, yakka mashg'ulot (amaliy ijrochilik bilan bogliq bo'lgan san'at yo'nalishlarida), nazorat ishi, kollokvium, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi), bakalavrlik bitiruv

malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi.

Auditoriya mashg'ulotlarining barcha turlari uchun 80 daqiqalik (tanaffussiz qo'shma ma'ruza) akademik soat belgilangan. O'quv mashg'ulotlari orasidagi tanaffus kamida 10 daqiqa boladi.

Ta'lim va tarbiya olib boriladigan tillar: o'zbek, rus va ingliz tillari hisoblanadi.

32. Institutda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda olib boriladi.

Institutning asosiy kasbiy ta'lim dasturi doirasida ta'lim olishning barcha shakllari uchun o'rnatilgan tartibda ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan otkazilgan davlat ta'lim standarti qo'llaniladi.

33. Institutda o'quv yili ikki semestrda bolinadi va uning har birida talabalarning o'zlashtirishi kurslar kesimida 5 baholik (2020/2021 o'quv yiliga qadar qabul qilingan talabalar uchun) va kredit-modul tizimi (2020/2021 o'quv yilidan boshlab qabul qilingan talabalar uchun)da olib boriladi.

Fanlarni o'zlashtirgan talabalarni kursdan kursga otkazish fakultet dekanining tavsiyasiga binoan rektor buyrug'i bilan amalga oshiriladi. Talabalarni kursdan kursga shartli otkazish mumkin emas.

Institutning ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, Oliy ta'lim Institutlarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom (ro'yxat raqami 3069, 2018-yil 26-sentabr) va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31 - dekabrda 824-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim Institutlarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq tartibga solinadi.

Institutda bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim Institutlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizom (ro'yxat raqami 1963, 2009-yil 5-iyun) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

34. Institutda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish va mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qollash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

35. Institutda oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar mutaxassisliklari ro'yxatiga muvofiq ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash, shuningdek, fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyalar tayyorlash va himoya qilish uchun oliy ta'lim Institutsiga doktorant va mustaqil izlanuvchilarni biriktirish ishlari amalga oshiriladi.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim Institutlari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrda "Oliy ta'lim Institutlari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son qaroriga muvofiq kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha kasbiy ta‘lim dasturlari amalga oshiriladi.

37. Institut huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida Attestatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qat‘iy hisobda turadigan davlat namunasidagi hujjat hisoblanadigan malaka attestati beriladi.

38. Institutda Kengash tomonidan tasdiqlangan mavzular, rejalar bo‘yicha bajariladigan ishlarning sifati hamda mehnat xavfsizligi ta‘minlangan holda talabalar, magistrantlar, katta ilmiy xodim izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar keng jalb etilib, ilmiy-tadqiqot va ijodiy ishlar olib boriladi.

V. Institutning professor - o‘qituvchilari tarkibi, o‘quv-yordamchi va ma‘muriy - xo‘jalik xodimlari (personali)

39. Institutda professor-o‘qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik - texnika, ma‘muriy - xo‘jalik, ishlab chiqarish, o‘quv - yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o‘qituvchilar tarkibiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o‘qituvchi, o‘qituvchi (assistent) va o‘qituvchi-stajor lavozimlari kiradi.

40. Professor-o‘qituvchilar tarkibidagi lavozimlarga ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim Institutlarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qaroriga muvofiq tegishli kafedraning kengaytirilgan ochiq majlisida pedagog kadrlar va jamoatchilik kengashining a‘zolari ishtirokida sinov darsi o‘tkazish natijalari bo‘yicha ushbu majlisning tavsiyasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy talim Institutlariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq tanlov asosida mehnat shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

41. Institutning professor-o‘qituvchilar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o‘zgartirish va bekor qilish amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar quyidagi huquqlarga ega:
belgilangan tartibda oliy ta‘lim Institutsi va fakultet Kengashlariga saylash va saylanish;

Institutning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;

Institutning axborot-resurs markazi, o‘quv va ilmiy bo‘linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bodimlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;

o‘qitishning uslub va vositalarini tanlash, o‘quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta‘minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

Institut rahbariyatining buyruq va farmoyishlari yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda murojaat qilish;

qonunchilikda belgilangan tartibda tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;

xorijiy hamkasblarning sohaga doir ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlari bilan tanishish va ular bilan fikr almashish;

nazariy bilimlarini amaliy tajribasini, ilmiy tadqiqot olib borish uslubini, pedagogik mahoratini takomillashtirib borish;

talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish; ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari, xorijiy ilmiy loyihalar hamda xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;

darslik va o'quv qollanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

tasdiqlangan rejaga muvofiq ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy-tadqiqot ishlarining muhokamasida ishtiroq etish va ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish, ilmiy ishlar natijalarini nashr etishga tavsiya berish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish;

xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta'lim Institutlari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtiroq etish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

43. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, mehnat va texnologiya intizomi, Institut Ustavi, Ichki mehnat-tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksiga va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga qat'iy rioya qilish;

o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va o'qituvchilik sha'niga dog' tushirmaslik;

ish jarayonida muloqat qiladigan Institut xodimlari, talabalari va boshqa shaxslar bilan xushmuomalada bo'lish;

ish beruvchining qonuniy buyruq va farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususan:

o'quv yuklamalari hajmini, o'quv-uslubiy, ilmiy, o'quv-tashkiliy ishlarni tasdiqlangan shaxsiy reja asosida bajarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma tayyorlash, o'quv adabiyot, ilmiy maqolalar, monografiyalar yozish, ixtiro uchun patent, EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;

ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashda qatnashish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda

bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;

Institut kengashi tomonidan tasdiqlangan kafedrada bajariladigan ilmiy mavzular doirasidagi tadqiqotlarda ishtirok etish; o'z malakasini uch yilda bir marta oshirish;

mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;

Institutning mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish; ish beruvchiga bevosita o'zining aybi bilan yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;

jamoatchilik ishlarida qatnashish;

pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash; zamonaviy globalashuv va demokratiya sharoitida ta'lim oluvchilarning tanlagan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha yuksak kasbiy tayyorgarligini, mehnatga bo'lgan qobiliyatini shakllantirish;

chet tili va axborot texnologiyalaridan savodxonligini oshirib borish asosida kamida bir yoki ikkita xorijiy tilni bilishi;

ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;

"Ustoz-shogird" tizimida ishtirok etib, o'ziga biriktirilgan shogirdlar bilan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish;

o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'mak bolish; kiyinish madaniyatiga rioya etish;

respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va jahonda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bolish;

Institut, fakultet, kafedra tomonidan tashkil etiladigan madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etish;

o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;

darslarni yuqori saviyada o'tish;

fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;

har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish va kafedra majlisida tasdiqlatish;

reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;

talabalar bilimini xolisona baholash;

yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;

ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratini oshirish;

talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;

opining mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish korxonasi va Institutlarda mavjud muammolar haqida ma'lumot va tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ishlab chiqarish jarayonida mavjud muammolarning yechimiga oid tadqiqot mavzusiga ega bo'lish;

olib borayotgan tadqiqot mavzusi asosida o'z yoki hammualliflikdagi ishlanma va texnologiyalarga ega bo'lishi;

mutaxassisligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim Institutlari va ishlab chiqarish korxonalarida tegishli muddatlarda malaka oshirib borishi yoki stajirovkadan o'tishi;

oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

44. Institut professor-o'qituvchilar tarkibini uch yilda kamida bir marotaba malakasini oshirish kafolatini ta'minlaydi.

45. Institutning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv- yordamchi va boshqa xodimlarining huquq va majburiyatlari oliy ta'lim Institutsining Ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

VI. Institutning tarkibi

46. Institutning tuzilmasiga Oliy ta'lim Institutlari boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga (ro'yxat raqami 2859, 2017-yil 21-fevral) muvofiq belgilangan tartibda shakllantiriladigan boshqannalar, bolimlar, markazlar fakultetlar, kafedralar, ilmiy va o'quv laboratoriyalari, muzeylar kiradi.

47. Institut fakultetlarini rektor tomonidan tayinlanadigan dekan boshqaradi. Dekan lavozimida ishlovchi shaxs mustaqil shtat lavozimida ishlovchi shaxs hisoblanadi va uning o'rindoshlik tartibida egallashga ruxsat etilmaydi.

Fakultet dekani o'z faoliyatida mazkur Ustavga, "Oliy ta'lim Institutsining fakulteti to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

"Oliy ta'lim Institutsining fakulteti to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq fakultetda Kengash tashkil etilishi mumkin.

Kengashning tarkibi, vakolatlari, shakllantirish va faoliyatining tartibi "Oliy ta'lim Institutsi fakultetining Kengashi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

Kafedra faoliyatiga Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy talim Institutlariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq tanlov asosida Institutning Kengashi tomonidan saylanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Kafedra mudirining vakolatlari va kafedra faoliyatiniig tartibi "Oliy ta'lim Institutsining kafedra to'g'risidagi Nizom" bilan belgilanadi.

48. Institut huzurida yuridik shaxs hisoblangan akademik litsey, texnikumlar va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi faoliyat yuritadi.

Institut tasarrufidagi akademik litsey va texnikumlar mustaqil yuridik shaxs hisoblanib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq hamda o'z Ustavi asosida amalga oshiradi.

49. Institut huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 26-sentabrdagi "Oliy ta'lim Institutlari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

278-son qaroriga muvofiq faoliyat kefrsatadi.

VII. Institutni boshqarish

Institutni boshqarish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ushbu Ustavga muvofiq yakka rahbarlik va oliy ta'lim Institutsining Kengashi orqali jamoatchilik boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili asosida amalga oshiriladi.

Institutni bevosita boshqarish Cfzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11 -iyuldagi PQ-4391-son qaroriga muvofiq, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining tavsiyasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bilan kelishilgan holda, Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan Institut rektori tomonidan amalga oshiriladi.

Rektor Institut faoliyatiga, shuningdek, Ish yuritish to'g'risidagi Yo'riqnama, Ichki tartib qoidalar, Odob-axloq kodeksi, Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizom hamda mazkur Ustavda belgilangan majburiyatlar uchun to'liq mas'uldir.

Rektor O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga ko'ra, Institut nomidan ishonchnomasiz ish olib boradi, barcha idoralar, Institutlar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi, Institutning mol-mulkiga mas'ullik qiladi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi, bank Institutlarida Institutning hisob raqamlarini ochadi, moliyaviy mablag'lardan o'rnatilgan tartibda foydalanish bo'yicha farmoyishlar beradi.

50. Institut rektori vakolati doirasida:

Institutning professor-o'qituvchilari, barcha xodimlari, talabalari va boshqa ta'lim olayotganlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi va topshiriqlar beradi;

fakultet dekanlari, bo'lim va boshqarma boshliqlari, bosh hisobchini, o'z nomenklaturasidagi boshqa xodimlarni lavozimiga tayinlaydi hamda lavozimdan ozod qiladi va ularning muayyan vazifalari, mas'uliyatlarini belgilaydi;

akademik litsey va texnikumlar faoliyatidagi ishning tashkil etilishi ustidan o'z yo'nalishlari bo'yicha prorektorlar kuratorligi-rahbarligi vazifalarini belgilaydi;

Institut prorektorlari lavozimiga nomzodlarni tavsiya etadi va prorektorlar, dekanlarning muayyan vazifalari xamda mas'uliyatlarini belgilaydi;

Institut xodimlari bilan O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mehnat shartnomalarini tuzadi, o'zgartiradi va bekor qiladi;

Institut tarkibiga kirgan ilmiy tadqiqot, tajriba-eksperimental hamda boshqa tashkilot va bo'linmalarning vazifalarini belgilaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

Institut xodimlarining lavozim maoshlariga ustamalar va qo'shimchalarni o'rnatilgan tartibda belgilaydi;

kasaba uyushma qo'mitasi yoki Institutning boshqa vakolatli organi bilan kelishilgan holda Ichki tartib qoidalari va Odob-axloq kodekslarini tasdiqlaydi;

Institutda Namunaviy shtat birliklariga muvofiq ajratilgan mablag'lar hamda

ish haqi fondi, tasdiqlangan Institut xodimlarining soni va lavozim maoshlari, ta'rif setkasi doirasida Institut professor-o'qituvchilari tarkibi va Institutning boshqa xodimlarining shtat birligini tasdiqlaydi hamda lavozim maoshlarini belgilaydi;

Institut Kengashining tavsiyasiga ko'ra o'qitilgan tartibda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq fakultetlarni, kafedralarni ochish yoki yopish qarorlarini tasdiqlaydi. Oliy ta'lim Institutsi kafedrasida to'g'risida namunaviy Nizom talablaridan kelib chiqqan holda Institut Kengashining tavsiyasiga ko'ra, kafedralar tashkil etiladi yoki tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi hamda ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq va vakolatli organlar tomonidan belgilangan boshqa vazifalar ijrosini ta'minlaydi.

Institut rektoriga o'zi ishlayotgan oliy ta'lim Institutsi va undan tashqarida haq tomanadigan boshqa rahbarlik lavozimida (ilmiy va ilmiy - metodik rahbarlikdan tashqari) o'rindoshlik bo'yicha ishlashga ruxsat etilmaydi. Rektor o'z vazifalarini o'rindoshlik bo'yicha bajarishi mumkin emas.

53. Oliy ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq Institut faoliyatining asosiy masalalarini ko'rish uchun Kengash tashkil etiladi.

Kengash tarkibiga rektor, prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda kafedralar mudirlari, bo'lim boshliqlari, Institut xodimlari, kasaba uyushmasi kengashi vakillari kiradi. Rektor Kengash raisi hisoblanadi. Kengashning boshqa a'zolari umumiy majlisda (konferensiyada) yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Professor-o'qituvchilar tarkibidan Kengashga saylanadiganlar soni rektor buyrug'i bilan belgilanadi.

Kengashning vakolati, uni saylash va faoliyat yuritish tartibi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Oliy ta'lim Institutsining Kengashi to'g'risida namunaviy Nizom bilan belgilanadi.

54. Institutda falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini beruvchi Ilmiy kengashlar faoliyati tashkil etilishi mumkin.

VIII. Jamoat tashkilotlari

55. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son qaroriga muvofiq Institutda samarali jamoatchilik nazoratini joriy etish maqsadida talabalar, ota-onalar, Yoshlar ittifoqining Institutdagi faollari, kadrlar buyurtmachilari, professor-o'qituvchilar hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat tarkibda Jamoatchilik kengashi tashkil etiladi.

Jamoatchilik kengashlarining asosiy vazifalari:

ta'lim sifati, professor-o'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahorati, talabalarga yaratilgan shart-sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'qitish;

Institutga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlar bo'yicha tavsiyalar berish;

talabalarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning pedagog kadrlar haqidagi fikrini to'liq o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar otkazish;

Institutdagi ta'lim jarayonini takomillashtirish b'kryicha takliflar tayyorlash va Institutning tegishli kengashi muhokamasiga kiritish.

56. Institutda kasaba uyushmasi va boshqa jamoatchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi.

Professor-o'qituvchilar va xodimlarning mehnat huquqi va manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmasi markaziy kengashi hamda ularning Institutda saylangan vakili amaldagi qonunchilik asosida o'z ish faoliyatini olib boradi.

IX. Moliya-xo'jalik faoliyati va moddiy-texnik bazasi

57. Institutga ushbu Ustavda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish maqsadida operativ boshqarish huquqi bilan davlat (ta'sischi) tomonidan binolar, inshootlar, mulkiy majmualar, Institutning pasportiga muvofiq asbob-uskunalar, shuningdek, iste'mol, ijtimoiy, madaniy va boshqa maqsadlar uchun zarur bo'lgan mulklar birlashtirilgan.

Institut Vazirlar Mahkamasining qarori bilan davlat tasarrufidan chiqariladigan va xususiyashtiriladigan ob'ektlar qatoriga kiritilgan. Institutga ajratilgan yer uchastkalari unga operativ boshqarish (ijara, tekin foydalanish) huquqi asosida birlashtirilgan.

58. Quyidagilar Institut faoliyatini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablaglari;

O'zbekiston Respublikasi va chet el fuqarolarining tolov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan (xorijiy valyuta) mablaglari;

budjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi mablaglari;

davlat ilmiy-texnikaviy dasturlari doirasida otkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratiladigan mablaglar;

xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar;

xalqaro moliya tashkilotlarining grantlari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va maqsadli badallari;

Institut faoliyatida amalga oshirilgan ilmiy, o'quv va boshqa innovatsion ishlanmalarni tijoratlantirish, shuningdek, Institut mol-mulkini ijaraga berishdan tushgan mablaglar;

qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

59. Institutning ta'lim faoliyatini moliyaviy ta'minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan budjet mablaglari, davlat tomonidan belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda qayta tayyorlash va xodimlarning malakasini oshirish hisobiga ajratilgan mablaglar, shuningdek, budjetdan tashqari mablaglar, jumladan talabalar va tinglovchilarni o'qitish uchun belgilangan tartibda olingan tolov-shartnoma asosidagi mablaglar va tadbirkorlik

tushumlari hisobidan amalga oshiriladi.

60. Institut asosiy faoliyatiga zarar yetmaydigan tartibda ta'lim hamda boshqa sohalarda pullik ta'lim va servis xizmatlarini amalga oshirishi mumkin. Institut shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uning Ustavida belgilangan vazifalarga mos kelishi kerak.

Institut o'z mulki bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, jamiyatlar va shirkatlarning ustav jamg'armasida qatnashish, pullik ta'lim xizmatlari, konsultatsiyalar va boshqa xizmatlar uchun narxلامي belgilash, soliq va konunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiy tolovlardan so'ng qolgan daromadni mustaqil tasarruf etish huquqiga ega.

Institut pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatishni budjetdan ajratiladigan mablaglar hisobidagi ta'lim faoliyati doirasida va uning o'miga amalga oshirishi mumkin emas.

Institut O'zbekiston Respublikasi konunchiligiga hamda mazkur Ustavga zid bolmagan shartnomalami tuzish, majburiyatlar va boshqa shartلامي belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qiladi.

61. Institutda lavozim maoshlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi "Respublika oliy talim Institutlari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-926-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim Institutlari xodimlari mehnatiga haq to'Mash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 164-son qarori va Mehnatga haq to'lashning yagona tarif setkasiga muvofiq belgilanadi. Institut xodimiga lavozim maoshi (stavka) o'z funksional vazifalarini hamda mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarganligi uchun to'lanadi.

Qo'shimcha maosh, ustama va boshqa moddiy rag'batlantirish tadbirlarining hajmini Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-avgustdagi "Respublika oliy ta'lim Institutlarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimلامي budjetdan tashqari mablagMar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 517-son qaroriga muvofiq Institut mustaqil, moddiy rag'batlantirish fondi doirasida amalga oshiradi.

Institutning moddiy rag'batlantirish fondidan foydalanish "Budjet Institutlari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi (ro'yxat raqami 177, 1995-yil 20-sentabr) nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

62. Institutda tashkil etilgan jamoat tashkilotlariga faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur bolgan xonalar ajratiladi.

Institut qoshidagi tibbiyot xonasiga, shuningdek, o'matilgan tartibda tashkil etilgan umumiy ovqatlanish tuzilmasiga (oshxona, bufet) isitish, yoritish va suv ta'minoti bilan taminlangan xonalar ajratiladi.

Institutning tegishli binolarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish yoki yangilarini qurish, ularning moliyaviy ta'minoti qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

X. Xalqaro hamkorlik

63. Institut O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori va 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni hamda mazkur Ustavga muvofiq, xorijiy mamlakatlarning ta’lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg‘armalar va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish huquqiga ega.

Institutda chet el fuqarolarini o‘qitish, qayta tayyorlash va ulaming malakasini oshirish, shuningdek, oliy ta’lim muassasi ilmiy-pedagogik xodimlarining xorijiy mamlakatlarda pedagogik va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasining vakolatli davlat organlari va xorijiy davlatlarning ta’limini boshqarish bo‘yicha tegishli organlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek Institutning xorijiy davlatlarning ta’lim va ilmiy markazlari, xalqaro jamg‘armalar va boshqa tashkilotlar bilan qonunchilikka muvofiq belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalari (bitim, memorandumlari), chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzilgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

64. Xalqaro faoliyatni amalga oshirishda Institut quyidagi huquqlarga ega:

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan kelishilgan holda ta’lim sohasidagi xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlariga a‘zo bo‘lish;
 xorijiy davlatlarning ta’lim va ilmiy markazlari, tashkilotlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish yuzasidan shartnomalar (bitim, memorandumlar) tuzish;
 xorijiy oliy ta’lim Institutlari va ilmiy markazlaridan yuqori malakali professor-o‘qituvchilar va olimlarni dars mashg‘ulotlariga, hamkorlikda o‘quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishga jalb etish;
 xorijiy hamkorlik ishtirokida Institut tarkibiy bo‘linmalari (qo‘shma fakultetlar, qo‘shma ta’lim dasturlari, markazlar va boshqa bo‘linmalar)ni qonunchilikda ko‘zda tutilgan tartibda tashkil etish;

Institut professor-o‘qituvchilari, xodimlari, doktorantlarini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, falsafa doktori (PhD) va magistratura dasturlari bo‘yicha ta’lim olishlarini ta’minlash;

Institut talabalarini xorijiy mamlakatlarga stajirovka, amaliyot o‘tash, konferensiya va tanlovlarga yuborishni ta’minlash;

Institut va xorijiy oliy o‘quv yurtlari talabalari, tayanch doktorantlari va doktorantlar, professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlari bilan ikki tomonlama o‘zaro almashinuv dasturlarini tashkil etish;

xorijiy fuqarolarni belgilangan tartibda Institutga o‘qishga qabul qilish va ularning o‘qishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Institut qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning institutlari va tashkilotlari bilan boshqa yo‘nalishlarda ham o‘zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o‘rnatish huquqiga ega.

65. Institut professor-o‘qituvchilari va xodimlari hamda talabalarining chet

el xizmat safarlari amaldagi qonunchilik hujjatlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining tegishli idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonining 5-bandiga muvofiq, ta’lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg‘or xorijiy tajribalami o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida Institut rektor va prorektorlarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safariga chiqishini Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligini xabardor qilgan holda amalga oshiriladi. Bunda Universitet rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma’lumotlar, jumladan mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa Universitet kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to‘g‘risida taqdim etilgan hisobot Universitet veb-saytiga joylashtiriladi.

66. Xorijiy safarlarga yuborilgan rahbar xodimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalar (bakalavr va magistr) bajarish lozim bo‘lgan reja ishlarini bajarmagan va o‘z xatti-harakatlari bilan Institut sha’niga putur yetkazgan hollarda ularga nisbatan qonunchilik asosida tegishli choralar ko‘riladi.

67. Institut tashqi iqtisodiy faoliyatidan tushgan valyuta, moddiy tushumlar qonunchilikka binoan mazkur Ustavda belgilangan Institut faoliyatini moddiy ta’minlash uchun ishlatiladi.

XI. Yakuniy qoidalar

68. Institut O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagilarga javob beradi:

ta’lim jarayonida o‘quv reja va jadvallarga muvofiq ta’lim dasturlari xajmini to‘liq bajarmaganligi;

ta’lim jarayoni vaqtida Institutda ta’lim oluvchilar va xodimlarning hayoti va sog‘lig‘i;

ta’lim oluvchilar va xodimlarning huquq va erkinliklarining buzilganligi;

amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarmaganligi.

69. Institut O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq qayta tashkil qilinishi yoki tugatilishi mumkin.

70. Ustav O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanib, o‘rnatilgan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘kazilgandan so‘ng kuchga kiradi.

Institut Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.



Toshkent sh.

2022 yil "1" aprel

BUYRUQ № 102

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti
ustavini amaliyotga kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda qabul qilingan "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son va "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 27-dekabrda qabul qilingan 541-son buyrug'ining 5-bandi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 7-martda qabul qilingan 84-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 7-martda qabul qilingan 84-son buyrug'ining 4-ilovasiga asosan tasdiqlangan va o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda mazkur buyruqqa ilova qilingan **Toshkent kimyo-texnologiya institutini ustavi** ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Institut prorektorlari (T.Safarov, B.Boborajabov, X.Po'latov, B.Qodirov), fakultet dekanlari (U.Boltaboyev, M.Vapayev, Yo.Safarov, A.Abdullayev, U.Abdullayev), devonxona va arxiv mudiri (F.Axmedova), katta yuriskonsult (B.Radjabov) va bo'lim boshliqlariga:

mazkur ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va ijroini ta'minlash;

faoliyatini mazkur ustavga muvofiq yuritilishini doimiy nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 10-martda qabul qilingan "Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ustavini tasdiqlash haqida"gi 226-sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan institutning 2018-yil 13-martda qabul qilingan 169-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

REKTOR



B.SH.USMONOV

01777



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI"

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI"

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

17.10.1991

09-01777

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

201053370

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Davlat muassasasi

Joylashgan joyi:

Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, NAVOIY KO'CHASI, 32-B-UY,

Guvohnoma:

Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

to'monidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

